

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTINI O‘QITISH FAKULTETI

“Himoyaga tavsiya etilsin”

Fakultet dekani

f.f.d. B.B.Abdushukurov

“ ___ ” - _____ 2018-y.

5111200 – O‘zbek tili va adabiyoti bakalavr ta‘lim yo‘nalishi IV kurs 401-guruh talabasi Xadjanova Sanobar Qurbanbayevnaning **“Sifat mavzusini o‘qitishda innovasion pedagogik texnologiyalar”** mavzusida yozilgan
BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

_____ f.f.d.prof S.Muhammedova

Taqrizchilar:

_____ T.Yusupova

O‘zbek tilini o‘qitish
metodikasi” kafedrası
dotsenti, p.f.n.

_____ Elnura Qurbonova

FTI akademik litseyi
ona tili va adabiyot o‘qituvchisi

“Himoyaga tavsiya etilsin”

“O‘zbek tilini o‘qitish
metodikasi” kafedrası mudiri,
f.f.n _____ I.Azimova
2018-yil “ ___ ”- _____

TOSHKENT – 2018

MUNDARIJA:

KIRISH	3
I BOB. SIFATLARNING MA'NO TURLARI TALQINI	
1.1. Sifatning ma'no guruhlarini tasniflashga oid ilmiy qarashlar	7
1.2. Ta'lim bosqichlari ona tili darsliklarida sifatlarning ma'no turlari tasnifi	12
1.3. Sifatlarning ma'no turlarini o'rganishda integratsiyaning o'rni.....	20
II BOB. SIFATNING MA'NO TURLARINI O'RGANISHDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR INTEGRATSIYASI	
2.1. Sifatlarning ma'no guruhlarini o'rganishda psixologiya fanidan foydalanish.....	33
2.2. Sifatning ma'no guruhlarini o'rganishda adabiyot fanidan foydalanish.....	39
2.3. Sifatlarning ma'no guruhlarini o'rganishda lingvokulturologiya sohasidan foydalanish.....	49
III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI	
3.1. Ochiq dars ishlanmasi.....	
3.2. Sifatning ma'no turlarini integrativ yondashuv asosida o'rganishga doir so'rovnoma.....	
XULOSA	
TAYANCH SO'ZLARNING O'ZBEKCHA-INGLIZCHA LUG'ATI	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI	

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Vatanimizda Istiqlol yillarida barcha jabhalarida tub yangilanish, rivojlanish jarayoni boshlandi. Iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma'rifiy sohalarda amalga oshirilgan tub islohatlar O'zbekistonni keng rivojlanish yo'liga olib chiqdi va jahonga tanitdi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston nafaqat iqtisodiy-siyosiy jihatdan, balki ilmiy-ma'naviy jihatdan ham yuksaklikka ko'tarildi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ham o'zining "Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir" asarida yosh avlod tarbiyasidagi ijobiy tomonga bo'lgan o'zgarishlarga alohida urg'u berib, shunday deb yozadi: "Eng muhimi, zamonaviy bilim va tafakkurga, sog'lom dunyoqarashga ega, rivojlangan davlatlardagi tengdoshlari bilan bellashishga tayyor bo'lgan, ko'zi yonib turadigan navqiron avlodimiz katta ishonch bilan hayotga dadil kirib keloyatgani barchamizni quvontiradi"¹.

Yurtimizda barkamol yetuk shaxsni tarbiyalash, Respublikamizda mohir kadrlar tayyorlashni davr talablari darajasiga ko'tarish, ta'limning rivojlanayotgan bozor iqtisodiyoti munosabatlariga asoslangan mexanizmini yaratish, uning mazmunini takomillashtirish, tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar, o'qituvchi va o'quvchilardagi ta'lim-tarbiya jarayoniga bo'lgan munosabatni, qarashlarni shakllantirish kabi masalalar qamrab olgan "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" bosqichma bosqich tatbiq qilinib amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda iqtidorli va iste'dodli yosh avlodni tarbiyalash maqsadida, ularga keng imkoniyatlar yaratish, mazmunli dastur asosida o'qitish darsda va darsdan tashqari mashg'ulotlarga jalb qilish muhim vazifa hisoblanadi. Zeroki, muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek: "Ilm-fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innavatsion g'oyalarga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo'q. Faqat ilm va ma'rifat, intellektual salohiyat, har tomonlama bilimli

¹ Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. -T.:O'zbekiston. 2015. -B. 255

kadrlar hisobidan biz O‘zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz”².

Respublikamizda ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan islohotlarda ta’lim-fan-ishlab chiqarish integratsiyasi tez-tez tilga olinmoqda. Ta’limning barcha sohalarini rivojlanitishda integratsiyadan unumli foydalanish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Bunday integratsiyadan foydalangan holda rivojlanish ta’limning deyarli barcha sohalarida, shuningdek, tilshunoslik sohasida ham aks etmoqda.

Hozirgi zamon axborot texnologiyalari asrida ilm o‘rganish va uni ta’lim oluvchiga fan asoslarini yuqori darajada o‘rgatishda, shuningdek, olamni bir butunlikda anglashga va tasavvur etishda, tevarak atrofda sodir bo‘layotgan voqealarni to‘g‘ri anglashda, ularni mohiyatini anglab oladigan yoshlarni tarbiyalashda fanlararo integratsiya alohida ahamiyat kasb etadi. Maktab umumta’lim fanlarining tarqoq holda o‘rganilishi, o‘qituvchilar tomonidan fanlarni bir-biriga uzviy bog‘liqlikda o‘rgatilmashligi, o‘quvchilarning butun borliqni bir butun holda anglashlariga to‘sqinlik qilib, o‘quvchilarda qiyinchilik tug‘diradi. Olimlarning ta’kidlashicha, integratsiya o‘quvchi dunyoqarashini shakllantirishni tezlashtiradi. Bu xususida ulug‘ didaktik olim Yan Amos Komenskiy shunday deydi: “Bir-biri bilan bog‘liq bo‘lgan hamma narsa, huddi shunday holda o‘rganilishi kerak”.

Til millatning ulkan boyligi va bebaho mulkidir. Shuning uchun ona tilini sevish, puxta o‘rganish, uni billurdek musaffo saqlash, kamol toptirish milliy tilimiz, ona xalqimiz jonajon Vatanimizda bo‘lgan beqiyos muxabbatimiz ramzidir. Til avlodlarni-avlodlarga, asrlarni-asrlarga bog‘laydi, chunki biz va siz tasavvur qilolmaydigan o‘tmish ajdodlarimiz ruhi shu ona tilimizga singdirilgan. Demak, inson shaxsining kamol topishida, tafakkurining rivojlanishida, tafakkur mahsulini nutq vositasida ifodalash salohiyatini egallashida asosiy vosita bo‘lmish ona tili ta’limi maktabda yetakchi o‘quv fanlaridan biri sanaladi. Zero, ona tili millat

² 2017-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida davlat mukofotlarini tantanali topshirishga bag‘ishlangan yig‘ilishdan

tafakkurini shakllantiradi, rivojlantiradi, takomillashtirib boradi va namoyon ettiradi. Buning uchun esa biz tilshunoslik fanini adabiyot, psixologiya, fizika kabi bir qator fanlar bilan uygʻunlashtirib oʻrganishimiz lozim. Shundagina, biz yuqorida koʻzlagan maqsadimizga erisha olamiz.

Integratsiya- ayrim boʻlaklarning yoki elementlarning bir-biriga qoʻshilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishdir. Dastlab, “integratsiya” tushunchasi XVIII asrdayoq Spener tomonidan qoʻllanilib, izohlangan edi. Biz ham oʻz tadqiqot ishimizda, integratsiyani tafakkur oʻstirish, taʼlim oʻrganuvchi va oʻrgatuvchining dunyoqarashini kengaytirish asosi sifatida qarab, uni fanlararo aloqa hamda taʼlim shakllarini sintezlash tarzida talqin etishga harakat qildik.

Professor R.A.Mavlonova shunday yozadi: “Integratsiya – “butun” degan maʼnoni bildiradi, demak, bu tafakkur oʻsishi jarayonining turli qism va integratsiya atama va uslubiy nuqtayi nazardan hodisa sifatida nima ekanligini koʻrib chiqaylik. «Integratsiya» soʻzi lotincha integratio-tiklash, toʻldirish, «integer» butun soʻzidan kelib chiqqan³.

Taʼlim tizimimizda integratsiyadan foydalanib oʻqitish juda katta taʼlimiy ahamiyatga ega. Sifatning maʼno turlarini oʻrganishda va oʻrgatishda integratsiyadan foydalanishning taʼlimiy ahamiyati shundaki, avvalo, oʻquvchilarda ona tiliga qiziqishni orttiradi, tafakkurini shakllantiradi, ona tili va adabiyot fanini oʻqitishni faollashtiradi, darslarning koʻrgazmaliligini taʼminlaydi, qolaversa, oʻquv fanlarni yanada chuqurroq, toʻlaroq oʻrganishga imkoniyat yaratadi, oʻquvchilarning bir nechta fan nuqtai nazaridan qarashlariga, ularni aniqroq tasavvur qilishlari hamda yaxshiroq tushunishlariga zamin yaratadi. Buni amalga oshirishni taʼminlashga qaratilgan usullarni va innovatsion texnologiyalarni tadqiq qilish va integratsiyadan foydalanib oʻqitishga qaratilgan mashqlar tizimini ishlab chiqish ishimizning dolzarbligini belgilaydi.

³ Мавлонова Р., Раҳманкулова Н. Бошланғич таълимни интеграциялаш. - Тошкент: Фан. 2011-й. –Б. 134

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Integratsiyalashgan ta'lim-tarbiya, fanlararo aloqalarning ayrim jihatlari mashhur pedagoglarning (Y. Komenskiy, D. Lokk, I. Gerbart, M. Pestalotssi, K. Ushinskiy va boshqalar), didaktiklarning (I.D. Zverev, M.A. Danilov, V.N. Maksimova, S.P. Baranova va boshqalar) psixolog olimlarning (E. N. Kabanova, N.F. Talizina, Y. A. Samarina, G.I. Vergeles), metodist olimlarning (M.R. Lvov, V.G. Goretskiy, N.N. Svetlovskaya. Y.M. Kolyagin, G. N. Pristupova) ishlarida ko'rib chiqilgan.

Adabiyotlarni o'rganish mobaynida shu narsa ma'lum bo'ldiki, O'zbek tilshunosligida sifatning ma'no guruhlarini integrative tarzda o'rganish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Ammo sifat ma'no guruhlarini tasnifi masalasida I.Hamdamova, M.Sodiqova, A.Hoshimov, F.Najmiddinov kabi tilshunos olimlarimiz o'zlarining qimmatli fikrlarini aytib o'tishgan.

Ona tili va adabiyot fanlarini integratsiyalash borasida Niyozmetova R., Mavlonova K. larning "Ona tili va adabiyot darslarini o'zaro integratsiyalash" nomli maqolalari ko'rib chiqildi.

O'quv fanlari va mavzularni integratsiyalashning ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish natijasida ta'lim samaradorligi oshadi hamda ortiqcha kuch, zo'riqish sarflanishlarining oldi olinadi. Shuning uchun biz aynan ta'limga integrativ yondashuv muammosini tadqiq etishni rejalashtirdik.

BMIning ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakulteti O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasining "2017–2018-yillarga mo'ljallangan BMI mavzulari banki" istiqbolli rejasi asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot obyekti: Sifatning ma'no turlarini o'rganishda integratsiyalashgan yondashuv jarayoni.

Tadqiqot predmeti: Sifatning ma'no turlarini o'rganishda integrativ yondashuvning mazmuni, vositalari, shakl va metodlari.

Tadqiqotning maqsadi: Sifatning ma'no turlarini o'rganishda integratsiyalashgan pedagogik-psixologik yondashuvga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilar belgilandi:

1. Muammoni nazariy va amaliy jihatdan o'rganish.
2. Integratsiyaning mohiyatini yoritish, o'zbek tilini o'rganishda integratsiyadan foydalanishning ahamiyatini ta'kidlash;
3. Sifatning ma'no turlarini o'rganishda integratsiyalashga pedagogik-psixologik yondashuviga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.
4. Sifatning ma'no turlarini psixologiya, adabiyot, lingvokulturologiya sohalari tushunchalari asosida o'rganishga doir materiallarni umumlashtirish
5. Integratsiyaning o'zbek tili ta'limidagi ahamiyatini yoritish asosida sotsial so'rovnomani o'tkazish va mutaxassislar fikrini o'rganish

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Sifatning ma'no turlarini o'rganish darslarini integratsiyalashgan pedagogik-psixologik yondashuv masalasi dolzarb pedagogik muammo ekanligi nazariy jihatdan asoslandi.

Sifatning ma'no guruhlarini o'rganish darslarini integratsiyalashga pedagogik-psixologik yondashuv mazmuni qiyosiy integratsiya asosida takomillashtirildi.

Sifatning ma'no turlarini o'rganish darslarini integratsiyalashga pedagogik-psixologik yondashuvining shakl va usullari aniqlandi.

Sifatning ma'no turlarini o'rganish darslarini integratsiyalashga pedagogik-psixologik yondashuviga doir tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqotning metodologik asoslari va metodlari. Ishda O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning hamda O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M. Mirziyoyevning nutqlari va asarlari, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, respublikamizning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy taraqqiyotini belgilovchi davlat hujjatlari, O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida", "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunlari, o'zbek maktablarida ona tili ta'limi Konsepsiyasi, "Ona tili" DTSi, taniqli psixolog, filolog, pedagog va metodist olimlarning ona tili ta'limining mazmunini yangilash, uni

sifatning ma'no turlarini o'rganishda integrativ yondashuv to'g'risidagi ilmiy-metodik fikrlari metodologik asos bo'lib xizmat qildi. Ishda tavsiflash, analiz va sintez, mantiqiylik kabi metodlar asosida tahlillar olib borildi.

Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi. BMI Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU O'zbek tili va adabiyotini o'qitish fakultetining "O'zbek tilini o'qitish metodikasi" kafedrasida yig'ilishida muhokama qilinib, himoyaga tavsiya qilingan. Tadqiqot natijalari bo'yicha Toshkent farmaseftika instituti akademik litseyi "Ona tili va adabiyot" fanidan ochiq dars o'tkazildi (darslar ishlanmalari ilova qilinadi). Shuningdek, mavzuda oid bitta maqola Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek tilini o'qitish metodikasi kafedrasida tashabbusi bilan tashkil qilingan "Metodist" ilmiy-metodik to'plamda nashr etildi.

Ishning tuzilishi va hajmi. Bitiruv malakaviy ishi uch bob, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati, BMIda qo'llangan terminlarning o'zbekcha-inglizcha lug'ati va ilovalardan iborat. Ishning umumiy hajmi 84 sahifani tashkil qiladi.

I BOB. SIFATLARNING MA'NO TURLARI TALQINI

1.1. Sifatning ma'no guruhlarini tasniflashga oid ilmiy qarashlar

Ta'lim tizimidagi rivojlanish jamiyat taraqqiyotining negizini tashkil etadi. Buning uchun muntazam tarzda boshlang'ich ta'lim tizimida qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish, shu orqali o'quvchilarning kompetensiyalarni egallash jarayonlarini jadallashtirish, ularni rivojlanayotgan jamiyat talablariga moslashtirish taqozo etiladi. Sifatli ta'lim olish ehtiyojining kuchayishi O'zbekiston fuqarolarining muhim hayotiy qadriyati sifatida tobora dolzarblashmoqda. Chunki sifatli ta'lim ijtimoiy-siyosiy barqarorlik va haqqoniylikning asosiy omilidir.

“Farzandlarimizni mustaqil fikrlashga, zamonaviy bilim va kasb-hunarni chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi”,⁴ deb o'z ma'ruzalarida ta'kidlab o'tgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning ana shu so'zlari biz, ta'lim sohasi ishtirokchilari uchun ham dasturulamaldir, ham ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi.

Ma'lumki, til ijtimoiy hodisa sifatida har doim jamiyat bilan birgalikda, uning taraqqiyot qonun-qoidasiga muvofiq rivojlanadi. Shu bilan birga, jamiyat ijtimoiy ongi, milliy tafakkur rivojiga ham ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat taraqqiyoti esa uni o'rganuvchi fan oldiga ham davr talabini qo'yadi. “Har bir davr o'z fani oldiga muayyan maqsad va aniq talablar qo'yadi. Fanlarning taraqqiyoti shu davrning ilg'or falsafiy fikri, davr uchun yetakchi bo'lgan fan sohalarining yutuqlari bilan uzviy bog'liqdir. Turli fanlarning manbalari ko'p qirrali bo'lganligi sababli davrning yetakchi falsafiy fikri fanlardan o'rganish manbaining qaysi tomonlariga alohida e'tibor berish lozimligini, borliqdagi mavjud qonuniyatlarni mantiqiy kategoriyalarda q a y u s u l d a aks ettirish yo'llarini belgilab beradi. Falsafaning

⁴ Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi //Adolat, B-23 2016-yil.-8-dekabr.

metodologik ahamiyati ham, uning boshqa fanlarga bevosita ta'siri ham ana shundan iborat.”⁵

Xususan, milliy fan sifatidagi tilshunoslikka ma'naviyat muammosi globallashuvi jarayonining tezlashuvi kuchli ta'sir ko'rsatadi hamda uning oldiga ulkan va kechiktirib bo'lmaydigan vazifalarni qo'yadi. Bu, ayniqsa, bugungi kunda mustaqilligini o'zi mustahkamlayotgan O'zbekiston uchun yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, toptalgan ma'naviy qadriyat, poymol etilgan axloqiy ustunlarimizning tiklanishi va kamol topishiga mustaqillik yillarida poydevor yaratilganligi ta'kidlanadi. Masalan, ona tilimiz mavqeining tiklanganligi, uning davlat tili maqomiga ega bo'lganligi shular jumlasidandir. Shu boisdan birinchi Prezidentimizning “Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch” asarida ona tili va milliy ruh, milliy ma'naviyat, davlat tili madaniyati tushunchasiga e'tibor konseptual xarakterga ega va boshqa fanlar qatori tilshunosligimizning dolzarb muammolariga yana bir karra e'tiborni jalb qiladi.

Alohida e'tirof etish kerakki, o'zbek tilining davlat tili maqomini olishi ma'naviyatimiz rivojida ulkan ahamiyatga ega. Lekin shu zaminda yashab, hatto o'zbek bo'la turib, unga bee'tibor qarayotganlar, voqelikka bepisand munosabatda bo'layotganlar yo'q emas. Shu masalaning o'ziyoq ko'tarilayotgan muammo – ma'naviyat masalasining yanada dolzarbligini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilindi va buni Prezidentimiz: “O'zbek tili mustaqil davlatimizning bayrog'i, gerbi, madhiyasi, konstitutsiyasi qatorida turadigan, qonun yo'li bilan himoya qilinadigan muqaddas timsollardan biriga aylandi”⁶, – deya e'tirof etdi. Bugungi kunda ona tili, o'zga tillarga hurmat muammosi bilan birga davlat tili madaniyatini yuksaltirish asosiy vazifadan bo'lsa, iste'molga kirayotgan davlat tili madaniyati tushunchasi esa axloqiy, ma'naviy kategoriyadan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa tilning milliy tabiati yaqqol aks etadigan grammatik qonuniyatlarni ana shu metodologik asoslarga tayangan

⁵ Ne'matov H., Bozorov O. Til va nutq . –T.: O'qituvchi, 1993. –B. 5.

⁶ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – B. 85.

holda chuqur tahlil qilish, muammoga til va tafakkur, til va ma'naviyat, til va madaniyat mushtarakligidan kelib chiqqan holda munosabatda bo'lishni taqozo qiladi.

Tilshunoslarimiz M.Mirtojiyev va N.Mahmudov o'zlarining «Til va madaniyat» risolasida «har bir til o'z so'z boyligiga, bu so'zlar esa ma'lum fonetik qurilishiga, izchil grammatik qonuniyatlariga ega bo'ladi. Uning shu tomonlariga putur yetib borar ekan, til inqirozga yuz tutadi»⁷, - deydilar. Tilshunos olim G'.Zikrillayevning ta'kidlashicha, «milliy adabiy tilning ahvoli ana shu ma'nodagi milliy ruhga bog'liq bo'ladi». Milliy ruh esa milliy tafakkur va milliy tuyg'u bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbek tilshunosligi tom ma'nodagi mustaqil fan sifatida o'zbek tilining o'zbekona tabiatini ochiq-oydin o'rganib, uni milliy g'oya va milliy mafkurani targ'ib qilishning tarkibiy qismiga aylantirdi. Bugungi kunda morfologiyada grammatik kategoriya va shakllarning, so'z turkumlarining yangicha tasnifi va ularni ta'lim oluvchilarga o'rgatish borasidagi ta'limga olib kirilayotgan ilmiy yangiliklar – interaktiv metod, texnologiya, integratsiya kabi tushunchalarning kirib kelishi fikrimizning dalilidir.

Xususan, morfologiya bo'limini o'rganish, nafaqat so'z turkumlari, balki ularning ma'no guruhlari tasnifi haqidagi tilshunoslarimiz tomonidan aytilayotgan turli fikrlar, tilimiz rivojiga ulkan hissa qo'shmoqda. O'zbek tilida sifatni ma'no jihatdan guruhlash masalasiga turlicha yondashuvlar mavjudligini ham e'tibordan chetga qoldirmaslik kerak. Avvalo, o'zbek tilshunosligida sifat ma'no guruhlari tasnifi masalasiga to'xtalamiz.

Sifatlar o'z navbatida bir qator ma'no turlariga ajratiladi. O'zbek tilshunosligida sifatni ma'no guruhlarga ajratish, dastlab, A.Kononov tomonidan amalga oshirilgan. U sifatni ma'no jihatdan yetti turga ajratadi⁸:

- 1) rang-tus anglatuvchi so'zlar;
- 2) maza-ta'm anglatuvchi so'zlar;

⁷ Mirtojiyev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O'zbekiston, 1992. – B. 110.

⁸ Кононов А.Н. Грамматика современного ўзбекского литературного языка. –М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1948. – С. –В. 144-145

- 3) hajm-shakl anglatuvchi soʻzlar;
- 4) kishi va hayvonning xususiyatlarini ifodalovchi soʻzlar;
- 5) umumiy xususiyatlarni anglatuvchi soʻzlar;
- 6) xarakter-holat anglatuvchi soʻzlar;
- 7) kishi va hayvonlarning jismoniy kamchiligini ifodalovchi soʻzlar;

Shundan soʻng koʻplab tilshunos olimlarimiz sifatning maʼno guruhlarini haqida ilmiy-izlanishlar olib borishdi. I.Hamdamaova, M.Sodiqova, A.Hoshimov, F.Najmiddinov shular jumlasidandir.

Tilshunos I. Hamdamova ham sifat maʼno guruhlarini mantiqiy tamoyil asosida yetti guruhga boʻladi:

1. Rang-tus bildiruvchi sifat.
2. Insonga xos xususiyatni bildiruvchi sifatlar.
3. Hayvonot dunyosiga xos sifatlarini bildiruvchi sifatlar.
4. Narsa-predmetlarga xos belgi, xususiyatni koʻrsatuvchi sifatlar.
5. Tabiat hodisalariga xos belgini namoyon qiluvchi sifatlar.
6. Jamiyat hodisalariga xos belgini ifodalovchi sifatlar.
7. Abstrakt tushunchaga xos xususiyatni bildiruvchi sifatlar.⁹

Tilshunos ayni guruhlarini oʻz ichida maʼnosiga koʻra yanada kichikroq guruhlariga ajratiladi. Bundan maqsad sifatlar anglatgan maʼnolarni toʻlaroq, izchilroq koʻrsatish ekani taʼkidlanadi:

1. Rang-tus bildiruvchi sifatlar quyidagicha tasniflanadi:
 - a) axromatik rang: *oq, qora, kulrang*;
 - b) xromatik rang: *qizil, sariq, yashil*;
 - d) spektr rang: *bugʻdoyrang, jigarrang*;
2. Insonga xos xususiyat, belgini bildiruvchi sifatlar quyidagicha guruhlanadi:
 - a) aql va xarakterga xos sifatlar: *vazmin, dono*;
 - b) turli holatni bildiruvchi sifat: *boʻydoq, aybdor*;
 - d) tashqi qiyofani ifodalovchi sifat: *garang, gung*;

⁹ Хамдамова И. ўзбек тилида сифатнинг маъно турлари ва уларнинг ўзбек тили изохла лугатида берилиши. – Б. 36

d) aqliy oqillikni bildiruvchi sifat: *ahmoq*;

e) biror hodisa yoki predmetga munosabat bildiruvchi sifat.

3. Hayvonot dunyosiga oid belgi-xususiyatni bildiruvchi soʻzlar quyidagicha tasniflanadi:

a) otlarning zotiga koʻra turlari: *arabi, qalmoqi*;

b) tashqi koʻrinishga va jismoniy kamchiligiga koʻra belgilarni ifodalovchi sifat: *qilichboʻyin*;

d) xulq-atvoriga koʻra sifat turlari: *yoʻrgʻa, tepongʻich*;

e) qoramol va echkilarga xos xususiyat bildiruvchi: *suzongʻich, suzagʻon*;

f) itlarga xos xususiyatni ifodalovchi sifatlar: *qopagʻon*;

4. Narsa-xususiyatlarga xos belgini ifodalovchi sifatlar quyidagicha guruhlariga ajratiladi:

a) narsa-predmetlarni xarakterlovchi sifatlar: *butun, baland*;

b) sezgi organlari vositasida xis qilish sifatleri: *achchiq, nordon*;

d) predmet materiali va tashqi belgi-xususiyatlarni bildiruvchi sifatlar: *devoriy, oynavand*;

e) ish-harakat, holat bildiruvchi sifatlar: *yopiq, pishiq*;

f) vaqtga munosabat bildiruvchi sifatlar: *bugungi, abadiy*;

g) oʻringa munosabat bildiruvchi sifatlar: *olis, uzoq*;

5. Tabiat hodisalariga xos belgini anglatuvchi soʻzlar quyidagicha guruhlanadi:

a) oʻsimlik dunyosiga xos belgini ifodalovchi sifatlar: *dumbul*;

b) ob-havoga oid belgini ifodalovchi sifatlar: *ayoz*;

6. Jamiyat hodisalariga xos xususiyatni izohlovchi sifatlar: *jahonshumul*;

7. Abstrakt tushunchalarga xos belgi-xususiyatni bildiruvchi sifat: *ajoyib*.

I. Hamdamova oʻz tasnifida maza-taʼm, hajm-oʻlchov, makon-zamon kabi sifatleri maʼno tur sifatida talqin qilmasa-da, narsaning belgi-xususiyatini bildiruvchi sifatlar zahirida ifodalaydi.

O‘zbek tilshunosligida oid adabiyotlarda, biz biladigan maktab va akademik litsey o‘quvchilari uchun yaratilgan darsliklarda, o‘quv qo‘llanmalarda ham M. Sodiqovaning keltirilgan sifatning ma‘no guruhlarini tasnifi asos sifatida keltirilgan.¹⁰

M.Sodiqova o‘zbek tilidagi sifatlarni quyidagi ma‘no guruhlarini farqlaydi:

- xarakter-xususiyat va holat bildiruvchi sifatlar;
- rang-tus bildiruvchi sifatlar;
- shakl bildiruvchi sifatlar;
- hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlar;
- maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar;
- hid bildiruvchi sifatlar;
- vazn bildiruvchi sifatlar;
- o‘rin-paytga munosabat bildiruvchi sifatlar.¹¹

Keltirilgan tasniflardan ayon bo‘ldiki, olimlarning o‘zbek tilidagi sifatning ma‘no turlari tasnifi borasidagi fikrlarida yakdillik yo‘q. Afsuski, bu xususdagi fikr va g‘oyalar xilma-xilligi hozirgi kunga qadar davom etib kelmoqda.

1.2. Ta‘lim bosqichlari ona tili darsliklarida sifatlarning ma‘no turlari tasnifi

Tilshunoslikda mustaqil so‘zlarni turkumga ajratish tamoyillarida ularning leksik xususiyatlariga alohida e‘tibor qaratiladi. Predmetning belgisini bildiruvchi mustaqil so‘zlar sifat deyiladi. Sifatlar shaxs va narsa-buyumlarni ta‘riflashda, nutqning ta‘sirchanligini oshirishda g‘oyat muhim ahamiyatga egadir. Shu bois o‘quvchilar nutqini o‘stirishda “Sifat va uning ma‘no guruhlar” mavzusi o‘rganuvchidan diqqat-e‘tiborli bo‘lishni, o‘qituvchidan esa katta mahoratni talab qiladi. Sifat va uning ma‘no turlari haqidagi dastlabki ma‘lumotlar 3-4- sinflarda berilsada, so‘z turkumi sifatida 5-6 –sinflarda o‘rgatiladi. 4-sinf ona tili darsligida sifat ma‘no guruhlarini to‘g‘risida qisqacha ma‘lumot berilgan:

¹⁰ O‘zbek tili grammatikasi. –J.I. –B. 296

¹¹ Содикова М. Хозирги ўзбек тилида сифат.-Т.:Фан. 1975. –Б.79.

Sifat shaxs va narsalarning rangini, mazasini, shaklini va hajmini va xil-xususiyatini bildiradi.¹²

Ushbu qoida keltirilar ekan, sifat ma'no guruhlarini 5 ta bo'lib bular quyidagilar:

Rang-tus, maza-ta'm, hajm, shakl, xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar, mazmunidagi umumlashma fikr keltirilmagan.

Darslikda "Sifatning ma'no guruhlarini" mavzusida 17 ta mashq, qiziqarli she'rlar, topishmoqlar, ertak va matnlar berilgan. Mashqlar uchun matnlar o'quvchini yoshiga mos tanlangan bo'lib, ba'zi mashqlar matnlari va topshiriqlari asosida o'qituvchi tasviriy san'at, adabiyot va lingvokulturologiya fanlari bilan integratsiyali dars tashkil qila oladi. Masalan: 290-mashqda "Temur bobom", "Jayronlar" kabi she'rlar keltirilgan bo'lsa, 292-mashqda "4-sinf "O'qish kitobi"dagi Oybekning "Alisherning yoshligi" asarini o'qing. Alisherga va kiyikka xos bo'lgan xususiyat bildirgan sifatlarni ko'chiring"¹³ topshirig'i beriladi.

5-sinf ona tili darsligida sifat so'z turkumini o'rganish uchun ushbu sinf o'quvchilari saviyasiga mos ravishda aniq va qisqa ta'rif berilgan:

Qanday?, qanaqa? So'roqlariga javob bo'lib, narsa-buyumning belgisini bildirgan so'zlarga sifat deyiladi. Belgi deganda, rang-tus, maza-ta'm, shakl-hajm, xil-xususiyat kabilar tushuniladi.¹⁴

Bu darslikda "Sifatning ma'no guruhlarini" degan tushuncha umuman qo'llanilmagan. Ammo, 247-mashqda shunday topshiriq beriladi: Sifatlarga misollar toping va ularni quyidagi jadvalga joylashtiring.¹⁵

rang-tus	maza-ta'm	shakl-hajm	xil-xususiyat

¹² Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. "Ona tili" Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 4-sinfi uchun darslik. "O'qituvchi". T.; 2017. –B. 118.

¹³ Ikromova R., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Shodmonqulova D. "Ona tili" Umumiy o'rta ta'lim maktablarning 4-sinfi uchun darslik. "O'qituvchi". T.; 2017. –B. 122.

¹⁴ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov., Qodirov V., Jo'rayev Z. Ona tili (5-sinf uchun darslik)-Toshkent.:Ma'naviyat-2015. –B. 85.

¹⁵ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov., Qodirov V., Jo'rayev Z. Ona tili (5-sinf uchun darslik)-Toshkent.:Ma'naviyat-2015. –B. 85.

O'rganuvchi shu orqali sifat ma'no guruhlari haqida ma'lumot olishi mumkin, qachonki, o'qituvchi quyidagilar sifatning ma'no guruhlari tarzidagi ma'lumotni bersa, yoki yozuv taxtasiga to'rtta misol yozib, shu misollar asosida o'quvchilarga sifat ma'no guruhlari haqida tushuncha berishi lozim bo'ladi.

Darslikda 4 ta topshiriq, 4 ta mashq berilgan. 246-mashqda Rizouddin ibn Faxruddin qalamiga mansub fikr keltiriladi:

Ey hurmatli qizlar! Ey izzatli qarindoshlar! Sizlarga ma'lumdirki, go'zal xulqli qiz bola butun oila uchun ulug' boylik va saodatdir.

O'qimishli, xulqini tarbiya qilgan qiz bola oltindan qimmatli, injudan qadrli bir boylikdirki, bu kabi qizlarning ismlari eng yiroq qarindosh-u tanishlarga qadar yetadi.¹⁶

Ushbu matn asosida 2 ta topshiriq beriladi. O'qituvchi bundan mohirona foydalanib, lingvokulturologiya fani bilan bog'lab integratsiyali dars tashkil qilishi mumkin. Bunda o'zbek qizlariga xos bo'lgan go'zal xulq, odob-axloq, ibo-hayo kabi xislatlarni o'quvchi yoshlarga singdirishi lozim. O'qituvchi o'quvchilarga matn mazmunidan kelib chiqib quyidagi savollarni berishi mumkin:

Qadrli o'quvchilar, bobo-buvilarigiz, ota-onangiz va o'qituvchilaringiz sizlarga o'zbek qizi qanday xislatlarga ega bo'lishi lozim, deya nasihat qilganmi?

- Ularning nasihatlarini yodingizdami?
- Demak, O'zbek qizi qanday xislatlarga ega bo'lishi kerak ekan?

Shuningdek, o'qituvchi dars jarayonida boshqa fanlar bilan ham integratsiyani amalga oshirish uchun, qo'shimcha topshiriqlar ishlab chiqsa bo'ladi.

Shuni ta'kidlash lozimki, mavzu uchun tanlangan mashqlar matni sifat ma'no guruhlarining barchasini qamrab olmagan. Mashqlar tarkibida maza-ta'm, shakl-hajm sifatleri umuma uchramaydi. O'qituvchi qo'shimcha topshiriq ishlab chiqishga ehtiyoj sezadi. Mashqlar uchun matn tanlashda istiqloq, hur respublikamiz ravnaqi hamda mehnatkash xalqimiz haqidagi matnlarga o'rin ajratish zarur. Darslikda

¹⁶ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov., Qodirov V., Jo'rayevaya Z. Ona tili (5-sinf uchun darslik)-Toshkent.: Ma'naviyat-2015. –B. 85.

mavzuga oid rasmi mashqlar ko‘proq bo‘lsa, o‘quvchilarning nutqini o‘stirish va fikrlash qobiliyatini rivojlantirish borasida o‘qituvchiga keng imkon yaratiladi.

6-sinf ona tili darsligi bu borada ancha mukammal ishlangan bo‘lib, unda o‘qituvchi sifat ma‘no guruhlarini o‘rgatishi uchun qulayliklar mavjud. Masalan, sifat ma‘no guruhlarini alohida mavzu sifatida berilgan, tasnif ham to‘la amalga oshirilgan. Sifat ma‘no guruhlaridan xususiyat, hajm-o‘lchov, makon-zamon sifatlariga alohida, rang-tus, maza-ta‘m va hid sifatlariga alohida mavzu sifatida o‘tiladi. Ammo, darslikda 11 ta mashq berilgan bo‘lsa, ularning deyarli barchasining sharti “Sifat ma‘no guruhlarini aniqlang” ko‘rinishida bo‘lib, bu o‘quvchini ancha zeriktirib qo‘yadi. Shu sababli, o‘qituvchi adabiyot, tasviriy san‘at, psixologiya fanlari bilan integrativ tarzda topshiriqlar ishlab chiqishi kerak.

Darslikda narsa-buyumlarning belgilari ma‘no jihatidan har xil bo‘lishi, chunonchi, rangi (ko‘m-ko‘k osmon), shakli (dumaloq stol), hajmi (katta uy), harorati (iliq shabada), maza-ta‘mi (achchiq sho‘rva), tashqi ko‘rinishi (semiz qo‘y) tarzida berilgan. Shular qatorida shaxsning belgi-xususiyatini ifodalovchi yoqimtoy bola, ziyrak qiz, dilkash ulfat, badjahl odam kabi sifatlar berilsa, o‘quvchilar dunyoqarashi yanada kengayar, so‘z boyligi oshar edi.

Akademik litseyning II bosqich talabalari uchun yaratilgan Hozirgi o‘zbek adabiy tili darsligining 23-darsida “Sifat va uning uslubiyati” mavzusi yoritilgan. Unda sifatning ma‘no guruhlariga alohida to‘xtalinmagan. Biroq, darslikda mavzu bo‘yicha o‘tilganlarni mustahkamlash uchun 6 ta mashq berilgan. Darslik mashqlarini bajartirishda integratsiyadan foydalanish mumkin. Masalan, 2-topshiriqda Shavkat Rahmon ijodidan she‘riy namuna keltirilgan bo‘lib, uni adabiyot bilan bog‘liqlikda, 245-mashqda “Ranglar jilosi” nomli matn berilgan bo‘lib, uni psixologiya bilan integrativ tarzda, 246-mashqda xalq maqollari va hikmatlaridan namuna keltirilgan bo‘lib, uni lingvokulturologiya bilan integrativ tarzda bajartirish lozim.

Akademik litsey o‘quvchilarini yosh xususiyatini, bilim darajasini va dunyoqarashini hisobga olsak, ularga faqat darslik bilan chegaralanmasdan, qiyosiy integratsiyadan foydalangan holda o‘qituvchi topshiriq ishlab chiqishi muhim

ahamiyat kasb etadi. Ularni izlanuvchanlikka, topqirlikka o'rgatish maqsadida "Sifat ma'no guruhlari qardosh xalqlar tillarida qanday tasniflanar ekan?" tarzidagi savollarni uyga vazifa qilib berish kerak.

Yuqoridagi darsliklardan ko'rinib turibdiki, o'zbek tilida sifat ma'no guruhlari tasnifida har xilliklar mavjud. Bu qarashlar tilimizda noaniqlikni vujudga keltirdi. Bu esa o'zbek tili grammatikasini o'rganayotgan har bir o'quvchi yoki abuturiyentga birmuncha qiyinchiliklarni vujudga keltirmoqda.

Ona tili ta'limini takomil darajasiga yetdi, deb aytolmayman, hali ona tili grammatik talqinlarida mukammallik yetishmaydi. Bu borada o'quvchilarni chalg'itmaslik, o'quv predmetidan bezdirmaslik, ko'nglini qoldirmaslik uchun bir to'xtamga kelish kerak.¹⁷

Darhaqiqat, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" 1997-yil qabul qilingan bo'lsa, shu bilan birga ta'lim tizimida "Uzluksiz ta'lim"ga asos solindi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida birinchi prezidentimiz Islom Karimov so'zlagan nutqida ta'lim-tarbiyaning uzluksizlik masalasiga ham to'xtalib shunday degan edilar: " Barcha amaldagi o'zgarishlar va tadbirlar asosan yuzaki bo'lib, ta'lim-tarbiya va o'quv jarayonlarining tarkibini, bosqichlarini bir-biri bilan uzviy bog'lash, ya'ni uzluksiz ta'lim tizimini tashkil qilish muammolarini yechib bergan emas".

Darsliklardagi har xilliklar o'zining salbiy ta'sirini o'tkazib, o'rganuvchilarda "ona tili qiyin fan", "har xilliklarni eslab qola olmayman" va "baribir o'rgana olmayman" kabi tushunchalarni yuzaga keltirmoqda. Bu esa, o'qituvchi darsga qo'ygan maqsadlariga yetishiga to'sqinlik qilmoqda. Ayni shu o'rinda, nazariy qoidalardan biroz chekinib, o'qituvchi integratsiyali ta'limga murojaat qilishi lozim. Shundagina, dars qiziqarli o'tilib, o'quvchilar e'tibori darsga qaratiladi, dunyoqarashi kengayib, mavzuni atroflicha o'rganadi.

Xususan, bizning uzluksiz ta'lim tizimimizda, o'zbek tilshunosligi ona tili darsi sifatida o'rta ta'lim maktablarida 1-sinfdan 9-sinfgacha, akademik litseylarda "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsi sifatida I,II va III kurslarda o'tiladi. Afsuski,

¹⁷ Abdurahmonova S. Davr va ona tili muammolari. Ma'rifat, 2018-y. 16-may. -B. 6-7.

hozirgi kunda umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun yaratilgan "Ona tili" darsliklari va akademik litsey o'quvchilari uchun yaratilgan "Hozirgi o'zbek adabiy tili" darsligi o'rtasida ma'lum tafovutlar borligini ko'rishimiz mumkin. Birgina, "Sifatning ma'no guruhleri" haqida 4,5,6-sinflarda o'quvchilarga ma'lumotlar beriladi. E'tiborli jihati shundaki, ta'limning ushbu uch bosqichida sifat uch xil ko'rinishda ma'no guruhlariga tasniflanadi.

4-sinf "Ona tili" darsligida sifat quyidagi ma'no guruhlariga ajratiladi:

1. Rang-tus bildiruvchi sifatlar.
2. Maza-ta'm bildiruvchi sifatlar.
3. Hajm bildiruvchi sifatlar.
4. Shakl bildiruvchi sifatlar.
5. Xil-xususiyat bildiruvchi sifatlar.¹⁸

Ushbu tasnifda, makon-zamon ma'nosini bildiruvchi sifatlar o'rin olmagan. Darslikdagi mashqlar matnida ham bu turdagi sifatni uchratmaymiz.

5-sinf "Ona tili" darsligida sifatning ma'ni guruhleri 4 ga ajratiladi:

1. Rang-tus sifatlari
2. Maza-ta'm sifatlari
3. Shakl-hajm sifatlari
4. Xil-xususiyat sifatlari¹⁹

Bu darslikda keltirilgan sifatning ma'no guruhleri, mavzuni to'la ochib bera olmaydi. Sababi, hid, makon-zamon sifatlari o'z aksini topmagan.


6-sinf ona tili darsligida esa sifat ma'no guruhleri 6 ga bo'lib tasniflanadi. Bular quyidagilar:

"Sifatlar qanday belgini ifodalashiga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi"²⁰:

¹⁸ Ikromov R., G'ulomova X., Yo'ldosheva SH., Shodmonqulova D. Ona tili (4-sinf uchun darslik)T.: O'qituvchi-2017 . 118-B.

¹⁹ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov., Qodirov V., Jo'rayev Z. Ona tili (5-sinf uchun darslik)-Toshkent.:Ma'naviyat-2015. 85-B.

²⁰ Mahmudov N.,Nurmonov A., Sobirov A.,Nabiyeva D. "Ona tili" (6-sinf uchun darslik) T.:2013 , 147-B.



Yuqorida aytib o‘tganimizdek, umumta’lim maktablari, kollej va akademik litsey darsliklari o‘rtasida uzviylik va izchillik deyarli yo‘q. Darsliklardagi qoidalar bir-birini takrorlashi bilan birga, ba’zilarida bir-birini inkor etishi, har xil ma’lumotlar keltirishi o‘qituvchi uchun noqulaylik keltirsa, o‘quvchilarni chalg‘itadi. Yuqorida keltirganimiz sifat ma’no guruhlari tasnifidagi har xilliklardan tashqari darsliklarda:

1. Fe’lning ma’noviy guruhlari 6-sinf ona tili darsligida 4ta, II akademik litsey HO‘AT da 7 ta;
2. Sifat darajalari 6-sinf ona tili darsligida 4ta, II akademik litsey HO‘AT da 2 ta;
3. Fe’l mayllari 6-sinf ona tili darsligida 3 ta, II akademik litsey HO‘AT da 4 ta;

Zero, O‘zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta’lim tizimining “Davlat ta’lim standartlari” da: “Ona tili ta’limining asosiy vazifasi o‘quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o‘stirish, o‘zini, o‘zgalarni va borliqni til vositasida anglashni hamda fikr va his-tuyg‘ularini ona tilining keng

imkoniyatlari doirasida bayon eta olishni o'rgatishdan iborat"²¹ - tarzida ta'kidlab o'tilgan.

Respublikamizda ta'lim sohasida ulkan islohotlar amalga oshirilayotgan bir paytda, barcha fanlar qatorida ona tili fanidan ham yangi darsliklar yaratilayotganligi barchamizga ma'lum. Afsuski, darsliklar o'rtasidagi bunday uzluksizlik va izchillikning buzilishi esa bir necha nashrlarda ham bartaraf etilmagan. O'yamizki, darsliklardagi uzviylik va uzluksizlikning yo'qolganligi, keyingi nashrlarda bartaraf etiladi.

1.3. Sifatlarning ma'no turlarini o'rganishda integratsiyaning o'rni

Biz o'quv faoliyatimiz davomida har xil sohaga oid fanlarni o'rganamiz. Ularni o'rganish davomida shunga amin bo'lamizki, har qanday o'quv fanlarining o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalari bir-biridan jiddiy farq qiladi. Xususan, ona tili ham boshqa fanlar bilan maqsad va vazifasi jihatidan tafovutlanadi. Shunga qaramay, ona tili o'quv predmeti shu vazifalarning umumiy tomonlarini birlashtirish imkoniga ega. Sababi, har bir fanga xos bo'lgan muayyan bilimlarni berish tizimi ona tili orqali reallikka aylanadi. Demak, ular o'quvchilarning bilish faoliyati omili sifatida alohida o'rin tutadi. Shunday ekan, ona tili o'qitishning samarali bo'lishi uchun uni boshqa fanlar bilan bog'lab, integrativ tarzda o'qitish maqsadga muvofiqdir.

Integratsiya Farididdin Attorning quyidagi fikrlariga hamohangdir: Bu ro'yi zaminda mayda narsaning o'zi yo'q, hamma narsa bir-biriga bog'liq va bir-birini to'ldiradi²².

Integratsiya jarayonining ildizi uzoq o'tmishdagi klassik pedagogikaga va psixologiyaga borib taqaladi hamda fanlararo bog'liqlik g'oyasi bilan ifodalanib, o'quv materialini mazmunini o'rganish, tabiatni yaxlit bir butun sifatida talqin qilishni nazarda tutadi.

²¹O'zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari. Toshkent-2016-yil.

²²Рўзимухаммад Б. Буюк шахслар силсиласи // Маърифат. - 2002. -№26. -Б.6.

Integratsiya shaxsni har tomonlama kamol topishini ta'minlashning muhim prinsipi sifatida maydonga keldi. Shu sababli, integratsiyalashgan ta'lim shaxsni intellektual va madaniy rivojlantirishning bosh omili bo'lib qoldi. Fransuz olimi Dj.Dyunning fikricha, "Ayni paytda ta'limda uning og'irlik markazini siljitishga qaratilgan o'zgartirishlar boshlandi. Bu o'zgarishlar, Kopernikning tabiatshunoslikda olam markazini yerdan Quyoshga siljitgan inqilobga juda o'xshab ketadi. Bizni misolimizda bola (o'quvchi) Quyosh kabi, uning atrofida esa ta'lim vositalari girdikapalak bo'lib aylanadi. Bola, atrofida shakllantirilayotgan vositalarning markazidir", deb qaraladi.

Sh. Yusupova integratsiya jarayonlarining o'zi yangi pedagogik texnologiya talablariga uyg'unligini tasdiqlaydi. Uning ko'rsatishicha: "Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya qila olishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin. Bunday zamoaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat"²³

O'qituvchi qachon va qanaqa fanlarni integrallash mumkin yoki integrallash shartligini bilishi muhim ahamiyatga egadir. Shundagina, o'qituvchi integrallashda ko'zlagan maqsadiga erisha oladi.

Pedagogikada integratsiya hodisasining ikki turi qayd etiladi:

1. Ichki integratsiya
2. Tashqi integratsiya

Ichki integratsiyaga tilshunoslikning morfologiya va sintaksis, leksikologiya va fonetika bo'limining integratsiyasi tushunilsa, tashqi integratsiyaga tilshunoslikning boshqa sohalar bilan, masalan, adabiyot, fizika, psixologiya bilan integratsiyasi tushuniladi. Biz ushbu tadqiqot ishimizda, mustaqil so'z turkumlaridan biri sifatning ma'no turlarini o'rganishda va o'rgatishda tashqi integratsiyadan foydalanishning ahamiyatini yoritdik.

²³ Юсупова Ш. Хозирги ўзбек адабий тили дарсларида укувчилар тафаккурини устиришининг илмий-методик асослари (академик литсейлар мисолида) Пед. фан. док. дис... - Т., 2005. –Б. 197.

Sifatlarning ma'no turlarini o'rganishda boshqa tillar qiyoslab, solishtirib, shuningdek, integrative tarzda o'rganish ham mumkin. Bu asosan kasb-hunar kollejlari, akademik litsey hamda oila o'quv yurtlari o'quvchilari va talabalariga ushbu mavzu o'rgatilyotganda ahamiyatlidir. Sifat so'z turkumining ma'no turlaridan maza-ta'm, hid bildiruvchi sifatlarni o'rganishda biologiya fani bilan, rang-tus sifatlarini esa psixologiya, adabiyot, tasviriy san'at fanlari bilan uyg'unlikda (integrative) o'rganish bir tomondan qiziqarli bo'lsa, ikkinchi tomondan o'rganuvchi dunyoqarashni kengaytirishga yordam beradi.

Zehn rivojlanishida ijod qilish muhim rol o'ynaydi. Integrativ darslarni tashkil qilishda ijod qilish orqali o'quvchilarning zehni rivojlantirish mumkin. Fanlararo aloqa darslaridagi ko'pgina mashqlar o'quvchini izlashga, fikrlashga, til va adabiyot, rasm, milliy istiqlol g'oyasidagi hodisalarni taqqoslashga, ijodiy kashfiyot qilishga o'rgatadi. Demak, integratsiya ijodiylik, zukkolik, xotirani mustahkamlash, izlanish, tasavvur hosil qilish demakdir. Tasavvur hosil qilish natijasida ijodkorlik ruhi paydo bo'ladi, ijodkorlik esa tafakkur rivojiga turtki beradi. SHuning uchun ham o'quv fanlari orasidagi aloqani bilish, ta'lim jarayonida ana shu qonuniyatlarga asoslanish muhimdir.

Fanlarni integratsiya qilib dars o'tilganda quyidagilarga e'tibor berish kerak.

- har bir dars muayyan maqsadga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.
- fanlararo aloqalarga oid tanlangan qo'shimcha material o'tiladigan mavzu bilan bog'lanishi shart.
- sinf o'quvchilari faolligini oshirish maqsadida ular bilan ishlash yo'llarini aniqlash mumkin.

Dars faqat ta'limiy bo'lib qolmasdan, o'quvchilarni insonparvarlik jihatlarini tarbiyalashga qaratilgan bo'lishi kerak. Integrativ darslarni tashkil qilish orqali munozara qildirish, fantaziya qila olishga o'rgatish, guruhlararo musobaqa, savol-javoblar tashkil qilish mumkin. Bunday zamonaviy dars turlarini qo'llashdan asosiy maqsad o'quv jarayonida tinglovchilar faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirishning yuqori darajasiga erishishdan iborat. Ana shunday texnologiya o'quvchilarda dunyoni o'zgacha tasavvur qilishga o'rgatadi, amaliyotni hayot bilan

bog'lashga, nazariy qoidalarni so'zma-so'z yodlamaslikka, shaxs va jamiyat uyg'unligini anglashga, fikrlar rang-barangligiga erishishga, nostandart tafakkur qilishga, shuningdek, o'z-o'zini rivojlantirish yo'llarini tushunishga imkon yaratadi.

Axborotlar ko'lamining ortishi, talabalarga beriladigan bilimlar hajmining ko'payishi o'qitiladigan fanlar miqdorining ortishiga olib kelmoqda. Bu esa, o'z navbatida, talabalarga psixologik va fiziologik jihatdan ularning fanga bo'lgan qiziqishlarini susaytirishga, bilimlarni o'zlashtirish darajasining pasayishiga sabab bo'lmoqda. Bunday salbiy holatlarni bartaraf etish uchun o'quv fanlarini integratsiyalash muammosini muvaffaqiyatli hal etish zarurati vujudga keldi.²⁴

Har xil darsliklar tahlili va o'quvchilar bilimi monitoringi natijalaridan ma'lum bo'lmoqdaki, o'quvchilar o'rganadigan o'quv materiallarining ko'lami keng va murakkab, ularning batafsil bayon etilishi o'quvchilarni ortiqcha zo'riqishga olib keladi, keng hajmdagi ma'lumotlarni eslab qolishga undaydi, shu bilan birga, zamonaviy fan asoslari, texnik va ishlab chiqarish texnologiyasidan orqada qolishga olib keladi. Buning oldini olish, o'quvchilarga har bir darsni qiziqarli esda qoladigan qilib o'tish uchun tillarni qiyoslash usuligan o'qituvchi mohirona foydalansa bo'ladi. Ayniqsa, tilni o'ziga qardosh bo'lgan, bir oilaga mansub tillar bilan qiyoslash yaxshi samara beradi. Sababi, har qanday tilda ham, sifat ma'no turlariga oid so'zlar badiiy tasvir ta'sirchanligini oshirib, obrazlilikni kuchaytirishga xizmat qiladi. Masalan, o'zbek tili turkiy tillar oilasiga mansub. Tilimizni ushbu oilaga kiruvchi tatar, turkman, qozoq, turk kabi tillari bilan qiyoslagan holda o'rganish mumkin. Quyida ozarbayjon, qozoq, turk, tatar, turkman tillarida sifat ma'no guruhlarining tasnifini keltiramiz:

Xususan, Tatar tilida sifatning quyidagi ma'no turlari ajratiladi.²⁵ Bular:

- 1) rang bildiruvchi sifatlar: *aq, qizil*;
- 2) odamlarning tashqi ko'rinishi, xarakteri, psixik xususiyatlarini, predmet xususiyatlarini ifodalovchi sifatlar: *yaxshi, yomon*;
- 3) holat darajasi, o'lchov-hajm bildiruvchi sifatlar: *ozin, tor*;

²⁴ Абдураимов Ш. С. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлаш сифатини таъминлашда тармоқлараро амалий интеграция. – Тошкент: Наврўз, 2014. – Б. 143.

²⁵ Современный татарский язык. Москва, 1974. –Б. 163.

- 4) hid-maza bildiruvchi sifatlar: *achi, eche*;
- 5) odam, hayvonlarning fizik va jismoniy xususiyatlarini bildiruvchi sifatlar: *qati, yabik*;
- 6) shakl bildiruvchi sifatlar: *yassi, tugerek*;
- 7) mavhum xususiyatlarni bildiruvchi sifatlar: *avir, kiyek*;
- 8) odamlarning subyektiv bahosini anglatuvchi sifatlar: *bayok(ulug‘), yalkau (yalqov)*.

“Turkman tili grammatikasi” da sifatning quyidagi ma’no turlari beriladi.²⁶

1. Rang bildiruvchi sifatlar: *oq, chok*.

2. Holat-xususiyat bildiruvchi sifatlar: *yaxshi, yesh*.

3. Inson va hayvonlarning xarakter-xususiyatlarini bildiruvchi sifatlar: *chapgir, bilgir*.

4. Maza-ta’ m bildiruvchi sifatlar: *suyji, ani*.

5. O’lchov-hajm bildiruvchi sifatlar: *uli, kichi*.

6. Predmet joylashuvini bildiruvchi sifatlar: *mektepdaki diz*.

7. Vaqt tushunchasini bildiruvchi sifatlar: *anshanchi, ertirki*.

8. O‘zakdan anglashilgan ma’noni ifodalaydigan sifatlar: *aqilli og‘lan*.

9. O‘zakdan anglashilgan ma’noga ega emaslikni ifodalovchi sifatlar: *chagasiz*.

10. Predmetlarning o‘xshash xususiyatlarini ifodalovchi sifatlar: *klasdom og‘lan, pikirdosh odam*.

“Ozarbayjon tili grammatikasi” da sifatlarning rang bildiruvchi (*girmizi, gara*), hajm-o’lchov bildiruvchi (*dar, derin*), inson va hayvonlarning fizik va fiziologik xususiyatlarini bildiruvchi (*chovon, chocha*) ma’naviy xarakter-xususiyatlarini bildiruvchi (*chogach, tenbel*), baholash sifatlarini bildiruvchi sifatlar (*jaman, jaxshi*) kabi ma’no turlari tasniflanadi.²⁷

Turk tilidagi sifatlar ma’nosiga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

- rang bildiruvchi sifatlar;
- predmet yoki shaxsning xususiyatlarini bildiruvchi sifat;

²⁶ Грамматика туркменского языка. 1-часть, -Ашхабад ИЛМ, 1970. –С. 140.

²⁷ Грамматика азербайджанского языка.1973. Москва, –Б. 65.

- sezgi orqali his etiladigan holat-xususiyatlarni bildiruvchi sifat;
- fazo va makonni bildiruvchi sifatlar;
- tashqi fizik xususiyatlarini ifodalovchi soʻzlar;
- yuqoridagi guruhlariga kirmagan sifatlar.²⁸

Integratsiya muammosini didaktik jihatdan tadqiq etish uni taʼlim prinsipi sifatida talqin etish talab etadi. Yuqorida turkiy tillardagi sifatning maʼno guruhlari tasnifining oʻzbek tili grammatikasida sifatning maʼno turlari tasnifi bilan qiyoslash, oʻxshash va farqli jihatlarini topish oʻquvchi uchun qiziqarlidir.

Metodik nuqtayi nazardan olib qaraganda, bir tilni boshqa til bilan qiyoslab integratsiyalash taʼlim-tarbiya jarayonini takomillashtiruvchi hamda koʻzlangan natijani kafolatlovchi shart-sharoit va usuldir, desak xato boʻlmaydi.

Yuqoridagi tillar oʻzbek tili bilan bir oilaga mansub. Shu sababli, oʻzbek tili grammatikasi bilan ularning bogʻliqlik, oʻxshashlik oʻrinlari koʻp boʻlishi mumkin. Buni aniqlash uchun oʻqituvchi interfaol metodlardan foydalanib, oʻquvchilarga topshiriqlar ishlab chiqishi lozim. Shuni taʼkidlashimiz joizki, taʼlim bosqichlarining hammasida ham ushbu qiyoslash usulini qoʻllab boʻlmaydi. Agar, oʻqituvchi “Sifat maʼno guruhlari” mavzusini turkiy tillar bilan qiyoslab, integrativ tarzda olib borish usulidan foydalanmoqchi boʻlsa, bunda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari oʻquvchilarini yoki boshqa tillarni oʻrganayotgan oʻquvchilar guruhini tanlagani maʼqul. Sababi, ularning yosh xususiyati, tafakkuri, dunyoqarashi va bilim saviyasi nisbatan yuqoridir. Shundagina, bu usul oʻzining ijobiy natijasini koʻrsatadi.

Sifatning maʼno turlarini qiyosiy integrativdan foydalangan holda oʻtishda grafik organayzerlardan foydalanish mumkin.

Grafik organayzerlar – oʻquv jarayonida qoʻyilgan maqsadga erishishda yordam beruvchi chizma, jadval, grafiklar majmui. Agar grafik organayzerlarni oʻqituvchi tayyor, toʻldirilgan holda qoʻllasa, vosita vazifasini, oʻquvchilarning

²⁸ Кононов А. Грамматика современного турецкого литературного языка. -М.-Л. : Изд-во АН СССР, 1941.


mas'ulot mavzusiga doir bilimlarini mustahkamlash va fikrlashini rivojlantirish maqsadida ishlatilsa, metod vazifasini bajaradi²⁹.

Grafik organayzerlarga “Baliq skeleti”, “BBB”, “Konseptual jadval”, “Venn diagrammasi”, “T-jadval”, “Insert”, “Klaster”, “Nima uchun?”, “Qanday?” , va boshqa metodlar kiradi.

Quyida ta'lim amaliyotida “Sifat ma'no guruhlar”ini o'rgatishda grafik organayzerlardan biri “Venn diagrammasi”dan foydalanish mumkinligi borasida so'z yurita'miz.

“Venn diagrammasi” grafik organayzeri

Ushbu grafik organayzer o'quvchilarda mavzuga nisbatan tahliliy yondashuv, ayrim qismlar negizida mavzuning umumiy mohiyatini o'zlashtirish ko'nikmalarini hosil qilishga yo'naltiriladi. U kichik guruhlarini shakllantirish asosida aniq sxema bo'yicha amalga oshiriladi³⁰. Venn diagrammasini quyidagicha sxema orqali aks ettirish mumkin:



O'qituvchi o'quvchilarni to'rtta kichik guruhga ajratadi va shunday topshiriq beradi:

²⁹Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Uslubiy qo'llanma. T., 2013. B. -122.

³⁰ Muhammedov O'. va boshqalar. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. O'quv-uslubiy tavsiyalar. Fan. -T.:2016 B.-145.

Yuqorida sizga o‘zbek tili bilan bir oilaga mansub, qardosh xalqlar tillarida sifat qanday ma’no guruhlariga bo‘linishini bilib oldingiz. Ushbu shartda ularni o‘zbek tilidagi sifat ma’no guruhlarini bilan qanday farqi yoki o‘xshash tomoni borligini aniqlaysiz.


1-guruh: O‘zbek va tatar tillaridagi sifat ma’no guruhlarini o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi.

2-guruh: O‘zbek va turk tillaridagi sifat ma’no guruhlarini o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi.

3-guruh: O‘zbek va ozarbayjon tillaridagi sifat ma’no guruhlarini o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi.

4-guruh: O‘zbek va turkman tillaridagi sifat ma’no guruhlarini o‘rtasidagi o‘xshash va farqli jihatlarni aniqlaydi.

Quyida 1-guruhning topshiriq natijalaridan namuna keltiramiz:



Shu tariqa 2-guruh o‘zbek va turkman tillarini, 3-guruh o‘zbek va ozarbayjon tillarini, 4-guruh esa o‘zbek va turk tillari o‘zaro qiyoslab, ushbu topshiriqni bajarishadi.

O‘qituvchi o‘quvchilar ushbu topshiriqni bajarishlaridan oldin ularga har ikkala tur o‘rtasidagi umumiy jihatni tushuntirib berishi lozim. Bu mavzuning

yaxshiroq tushunilishini ta'minlaydi hamda chalkashliklarning oldini oladi. Venn diagrammasi esa bunday paytlarda juda yaxshi samara beradi.

Shundan so'ng, o'qituvchi o'quvchilar bergan ma'lumotlarni umumlashtiradi va xulosalaydi:

Tatar, turkman, ozarbayjon, turk tillarida sifatning rang bildiruvchi, inson va hayvonlarning xarakter-xususiyatlarini anglatuvchi, o'lchov-hajmni ko'rsatuvchi ma'no turlari tasniflanadi. Ammo, sifatning maza, hid, shakl ma'no turlarini ifodalovchi sifatlar ozarbayjon, turk tillarida mavjud bo'lsa ham, boshqalarida tillardagi tasniflarda bu turdagi so'zlar farqlanmagan. O'rin, vaqt, makon tushunchasini ifodalovchi so'zlar sifatning ma'no turi sifatida turk tilidagi tasnifda ko'rsatiladi. Shuningdek, turk tilidagi tasnifga kiritilmagan sifatning ma'no turlari "yuqorida qayd etilgan guruhlarga kirmagan sifatlar" guruhiga jamlanadi.

Ozarbayjon, tatar, turkman tillaridagi sifatlarning ma'no guruhlari ba'zi xususiyatlariga ko'ra o'xshash bo'lsa-da, lekin ayrim jihatlari bilan o'zaro farqlanadi. Demak, turkiy tillarda, xususan, o'zbek tilshunosligida amalga oshirilgan sifatning ma'no turlari tasniflari amalda bir-biridan deyarli farqlanmaydi. Asosiy farq sifat ma'no turlarining nomlanishidadir. Shu bilan birga, yuqorida keltirilgan tasniflar orasida o'xshashliklar mavjud.

O'qituvchi fikrlarni umumlashtirganidan so'ng, muammoli ta'limga asoslangan pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda o'quvchilarni mustaqil fikrlashga undaydi.

Muammoli ta'lim o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini o'stirishga qaratilgan. Ijodiy qobiliyatlarini o'stirishga qaratilgan ta'lim esa rivojlantiruvchi ta'lim bo'lib sanaladi.

Muammoli ta'lim ana shu fikrlash qobiliyati va bilish ehtiyojini vujudga keltiradigan asosiy vosita sanaladi.

Muammoli o'qitish yo'li bilan o'quvchilar faoliyatini faollashtirish bilimlarni tayyor holda berish orqali ular faoliyatini faollashtirishdan farq qiladi.

Muammoli ta'lim yo'li bilan o'quvchini faollashtirish natijasida biz uning muayyan bir tizimda fikrlashiga erishamiz.

Izlanuvchanlikka asoslangan faoliyat muammo yaratish muammoli vaziyatni vujudga keltirish bilan boshlanadi. Yaratilgan qiyinchilikni yengishi uchun o‘quvchida mavjud bilimlar yetishmay qoladi.

U noma’lum bilimlarni egallash uchun izlanishga, ijodiy faoliyat ko‘rsatishga majbur bo‘ladi. Izlanish o‘quvchida faollikni vujudga keltiradi³¹.

Muammoli ta’limga asoslangan texnologiyalar juda ko‘p bo‘lib, biz quyida foydalanish mumkin bo‘lgan pedagogik texnologiyalardan birini ko‘rib chiqamiz.

“Aqliy hujum” metodi

“Aqliy hujum” metodining afzalligi: Sinfdagi har bir o‘quvchiga o‘qituvchi qo‘ygan savol yoki muammo yuzasidan o‘z fikrini bayon etishiga imkon beruvchi o‘quv usulidir. Usul mohiyati “bir kala – yaxshi, o‘n beshtasi undan a’lo” shiori bo‘yicha o‘qituvshi tomonidan belgilangan muammo yoki savol yuzasidan ehtimol tutiladigan hamma fikrlar ,variantlarining barchasi, shu jumladan, aytarli to‘g‘ri bo‘lmaganlari ham inobatga olinadi.

«**Aqliy hujum**»ni o‘tkazish usuli:

1) O‘qituvshi sinfga savol, torshiriq yoki muammo beradi va o‘quvchilarga o‘z fikrlarini aytishni taklif qiladi.

2) Istisno tariqasida barcha fikrlar (qancha ko‘p bo‘lsa, shuncha yaxshi) sinf taxtasiga yozib boriladi.

3) Barcha fikrlar yozib olinganidan keyin o‘qituvshi o‘quvchilar bilan birga g‘oyalarni aniqlashtiradi, aytilgan fikrlarga tuzatishlar kiritadi, keyinchalik ishdan foydalanish maqsadida ulardan eng muhimlarini ajratib ko‘rsatadi.

Demak, o‘qituvchi quyidagi savollarni berishi mumkin:

1. Turkiy tillar bir oilaga mansub, sizningcha, barcha turkiy tillar uchun yagona “Sifatning ma’no guruhlari” ni ishlab chiqish lozim emasmi?

2. Ba’zi turkiy tillarda harakatning belgisini bildiruvchi sifatning ma’no turlari ham mavjud. Bu qanchalik to‘g‘ri deb o‘ylaysiz?

O‘qituvchi o‘quvchilarga bunday savol bilan murojaat qilar ekan, belgilangan vaqt ichida nisbatan ko‘proq o‘quvchilarning fikrlarini tinglashga harakat qilishi,

³¹ Eshmuratov M.T.. “Innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonida”. Fan,T.,-2011. B.-168

shundan so'ng esa, ilmiy asosga ega bo'lgan tarzda ularning fikrlarini umumlashtirib, xulosalashi lozim. Shuningdek, o'quvchilarga quyidagi ma'lumotlarni ham aytib o'tishi mumkin:

Tilshunos olimlardan biri A.Pokrovskaya turk, ozarbayjon, turkman tillaridagi sifatning ma'no turlari tasniflarini o'rganib chiqib, tahlil etadi va sifatning ushbu ma'no guruhleri tasniflarining bir-biriga mos kelmaydigan jihatlarini tanqid qiladi hamda barcha turk tillarda sifatning yagona semantik guruhlanishini ishlab chiqish lozim, degan g'oyani ilgari suradi. Tilshunosning fikricha, turkiy tillarda faqat predmet, hodisanigina emas, balki harakat belgisini bildirib, formasini o'zgartirmay ot, fe'l bilan bog'lanib, hol, aniqlovchi, kesim vazifasida keladigan sifatlar (yangi uy, yangi keldi, bu uy yangi) va faqat predmet belgisini ifodalab, harakat belgisini ko'rsatmaydigan sifatlar mavjud (oq, qora, qari, yosh). Shunga ko'ra, turkiy tillarda sifatning ikkita asosiy semantik-funksional guruhlarini-predmet, harakat belgisini ifodalaydigan sifat, ya'ni aniqlovchi hamda hol vazifasini bajaruvchi sifatlar va predmet belgisini anglatuvchi, gapda aniqlovchi bo'lib keladigan sifatlar guruhini tafovutlaydi. A. Pokrovskaya turkiy tillarda sifatni ma'no turlari bo'yicha tasniflashda ayni holat hisobga olinmaganligi sababli sifat, ravishni farqlashda noaniqliklar mavjudligini e'tirof etadi.³²

Darhaqiqat, 6-sinf ona tili darsligida sifat so'z turkumiga shunday ta'rif beriladi:

Otga bog'lanib, uning belgisini bildiradigan va qanday? qanaqa? so'roqlariga javob bo'ladigan so'zlarga sifat deyiladi.³³

E'tiborli jihati, qoidada "otga bog'lanib", "otning belgisini bildiradi" kabi ma'lumot keltirilgan.

Ushbu darslikda ravish so'z turkumiga esa quyidagicha ta'rif keltiriladi:

Harakat-holatning bajarilish tarzi, payti, o'rni, daraja-miqdori kabi belgilarini bildiruvchi va qanday? qachon? qayer(-ga,-da,-dan)? qancha? singari so'roqlarga javob bo'luvchi so'zlar ravish deyiladi.³⁴

³² Поковская А. Классификация тюркских прилагательных по их семитическим признакам. Тюркское языкотнакие. –Ташкент. Фан, 1985,-Б. 167-171.

³³ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A.,Nabiyeva D. "Ona tili" (6-sinf uchun darslik) T.:2013. B. -147

Qoidadan “harakat-holatning belgisini bildiruvchi turkum ravishdir” kabi xulosaga kelishimiz mumkin.

Demak, o‘zbek tilshunosligida A. Pokrovskayaning sifat va ravishni farqlashda noaniqliklar mavjud degan fikri o‘z ifodasini topadi. Chunki, yuqorida keltirilgan misollar *yangi uy*, *yangi keldi* birikmalaridagi “yangi” so‘zi o‘zbek tilshunosligida ikki xil turkumni ifodalaydi.

yangi uy - sifat yangi keldi- ravish

“Hozir” so‘zini ham xuddi shunday tahlil qilish mumkin:

Har ishda hozir-u nozir odam – sifat

U sinfdan hozir chiqib ketdi- ravish

Bu kabi farqlar turkiy tillarni o‘rganayotgan o‘rganuvchiga biroz tushunmovchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Bu farqlarni to‘g‘ri tahlil qila olish uchun ham qiyoslash usulidan foydalanish lozim.

6-sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, “Sifatning ma’no guruhlari” mavzusini o‘rgatishda soddaroq, qiziqarliroq, ammo samarali ta’lim metodlaridan foydalanish lozim. Ularga ushbu mavzuni o‘rgatishda boshqa tillar bilan qiyoslash ya’ni integrallash orqali tushuntirish biroz murakkablik qiladi.

Demak, bizning uzluksiz ta’lim tizimimizda integratsiyani amalga oshirish pedagogik, psixologik, gigiyenik va fiziologik jihatdan muhim ahamiyatga ega. Talaba va o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilishi uchun qulay imkoniyat tug‘iladi. Natijada o‘quv-biluv jarayonining samaradorlik darajasi ortadi. Fanlarni integratsiyalash ta’lim oluvchilarda fanlarga bo‘lgan qiziqishni kuchaytiradi, bilim darajalarini oshiradi, o‘quv materialining o‘zaro uzviylikda bo‘lishini ta’minlaydi.

Xullas, tilshunoslik nuqtai nazaridan kelib chiqsak, o‘quvchi talabalarga ushbu sifatning ma’no guruhlari qiyosiy integratsiyadan foydalanib o‘rgatish quyidagi natijalarni berishi mumkin:

³⁴ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A.,Nabiyeva D. “Ona tili” (6-sinf uchun darslik) T.:2013. B.- 147

- o'rganuvchida boshqa qardosh xalqlar tilini o'rganishga intilishni vujudga keltiradi;

- til o'rganishga motivatsiya uyg'otadi;
- boshqa tillarga hurmat ruhi paydo bo'ladi;
- mavzu yuzasidan atroflicha bilimga ega bo'ladi;
- ilmiy qobiliyati bilan birga, ijodiy qobiliyati ham shakllanadi;
- qardosh xalqlar tillari haqida ma'lumotga ega bo'ladi;
- dars qiziqarli, bahs-munozarali tashkil etiladi;

Demak, ko'pgina ta'lim tizimi rivojlangan xorijiy mamlakatlar ta'limi jarayonida integrativ kurslardan samarali foydalanilishi bejizga emas ekan. Masalan, Rossiyada "Atrof-olam va chet tili", Fransiyada "Iqtisodiy va ijtimoiy fanlar", Germaniyada "Texnika va biologiyada nanotexnologiya" kabi integratsiyalashgan kurslar o'qitiladi. Shuningdek, Rossiyada adabiyot, tasviriy san'at, musiqaga oid integratsiyalashgan dasturlardan foydalaniladi. AQShda esa fan-texnika, ishlab chiqarish va madaniyatning turli sohalarini o'zida mujassamlashtirgan dasturlar keng tatbiq etilmoqda. Bizning ta'lim tizimimizda ham integrativ kurslardan mohirona foydalanishimiz mumkin. Shunga e'tibor berishimiz lozimki, biz ta'lim mazmunini integratsiyalashda o'quv predmeti mazmuniga o'quvchilarning mustaqil fikrlashga, mustaqil izlanishga chorlash uchun zarur bo'lgan bilimlarni singdirishimiz kerak.

Bizningcha, sifatning ma'no turini o'rganayotgan o'quvchi boshqa tillar bilan qiyoslagan holda o'rgansa, nafaqat, mavzu yuzasidan atroflicha bilimga, balki boshqa tillar haqida keng tasavvurga ega bo'ladi. Muhimi, mavzuni mazmunidan kelib chiqqan holda, o'qituvchi tilimizni boshqa bir tillar bilan qiyosiy integrallash usulidan foydalanib dars o'tganda, o'quvchilar, qardosh turkiy xalqlar tili grammatikasi taraqqiyoti haqidagi ilmiy bilimlarga ega bo'lishi, shuningdek, o'z tiliga hurmat, uni asrab-avaylashi lozimligi xususidagi tushunchani ong-u shuuriga singdirib olishi lozim.

II BOB. SIFATNING MA'NO TURLARINI O'RGANISHDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR INTEGRATSIYASI

2.1. Sifatlarning ma'no turini talqin qilishda psixologiya fanidan foydalanish

Integratsiya jarayoni hozirgi zamon sharoitida insoniyat faoliyatining barcha sohalariga tez sur'atlar bilan kirib bormoda. "Fanlar integratsiyasi"- deyilganda turli sohadagi bilimlarni, ilmiy tadqiqotlarning umumiy vazifalarini o'zaro biriktirib o'rganilish tushuniladi. Yuqorida aytib o'tganimizdek, sifatning ma'no turlarini o'rganishda adabiyot, tasviriy san'at, lingvokulturologiya, psixologiya kabi bir qator fanlar bilan integrative tarzda o'rganish mumkin.

Demak, o'quvchilarga sifatning ma'no turlaridan rang-tus sifatlarini psixologiya bilan uyg'unlikda o'rganish ham qiziqarli, ham foyadalidir. Sababi, psixologiya inson ruhiyati, psixikasi haqidagi fandır. Ushbu mavzuni o'rganuvchilar va o'rgatuvchilar psixologik bilimlarini takrorlab oladilar va sifatning ma'no turlarini osonroq tushunadilar. Barchamizga ma'lumki, rang-tus sifatlarining inson ruhiyatiga ta'sirini aniqlash maqsadida ko'plab tajribalar o'tkazilgan. Shu tajribalardan biri, 2009-yili Britaniya Kolumbiyasi universiteti olimlari tomonidan o'tkazilgan tajribadir. Ular tajriba qatnashchilarining kompyuter ekranlariga turli xil, ko'k, qizil va "neytral" ranglarni chiqarib, turlicha mashqlar bajarishni taklif qilishgan. Ekranida qizil rang bo'lganida ishtirokchilar xotira bilan bog'liq testlarni hamda matndan xato topishni, ya'ni detallarga e'tibor talab qiluvchi mashqlarni yaxshi uddalashgan. Biroq ekranida ko'k rang paydo bo'lgach, ular ijodiy mashqlarni yaxshiroq bajarishgan. Tajriba mualliflarining so'zlariga ko'ra, qizil rang ishtirokchilari ehtiyotkor bo'lishiga sababchi bo'lgan bo'lsa, ko'k rangda ular o'zlarini erkin his qilishgan. Demak, bu tajribadan kelib chiqib shuni aytishimiz mumkinki, rang inson kayfiyatiga, xulq-atvoriga ma'lum ma'noda ta'sir o'tkazadi. Shu sababli, o'zimiz istagan kayfiyatni uyg'otish maqsadida yotoqxonamiz, ishxonamiz uchun mos rangni soatlab qidiramiz. Natijada, ko'pchilik yotoqxonasini

moviy yoki och yashilga, vrachlar xonasi tozalikka ishora qilinib oqqa, savdo yaxshi bo'lishini ko'zlagan fastfood restoranlari qizil yoki sariqqa, ba'zi qamoqxona kameralari esa, bosimni kamaytirish maqsadida pushti rangga bo'yaladi. Biz xona nimaga mo'ljallanganligiga qarab qaysi rangga bo'yashni yaxshi bilamiz, deb o'ylaymiz. Chunki biz qizil rang insonga kuch-quvvat bag'ishlasa, moviy rang sokinlik, musaffolik belgisi sifatida odamni tinchlantiradi degan fikrga ko'pchilik ishonadi.

Tadqiqotchilarning fikricha, AQSH, Shvetsariya, Germaniya, Polsha, Avstriya va Buyuk Britaniyaning ba'zi turmalari pushti rangning biror bir tusiga bo'yalgan. Ilmiy tadqiqot natijalari ba'zida bu fikrlarni inkor qilmoqda. Bir guruh tadqiqotchilar shuni ta'kidlab o'tishadiki, agar siz biror rang yorug'ligi bo'yicha avvaldan ma'lum bir tajribaga ega bo'lsangiz, yorug'likni doimgidek qabul qilasiz. Bu bizga maktab xotiralarini eslatib yuboradi. O'qituvchingiz xatolaringizni qizil bilan belgilagani uchun ham siz beixtiyor qizil rangni xavf-xatar rangi ekanligini his qilasiz. Bundan tashqari yo'l belgilaridan ta'qiq belgisi ham qizil rangda bo'lsa, zaharli mevalarning ko'pchiligi ham huddi shu rangda. Bu esa insonni hushyorlikka, e'tiborliroq bo'lishga undaydi. Moviy rang esa, aksariyat holatlarda xotirjam, sokin holatlar, masalan, dengiz yoki samo bilan bog'liq.

Psixolog olimlar insonlarning qaysi rangni yoqtirishiga qarab turib, ma'lum darajada uning xarakterini ham aniqlash mumkin degan g'oyani ilgari surishadi. Bu esa rang-tus sifatini o'rganayotgan shaxsning e'tiborini tortadi. Xususan, "Qizil rang- harakatchan, irodali, o'ziga ishonuvchan. Oilada qattiqqo'l, talabchan. Siz osonlikcha xayajonga tushasiz va sezgirlik ham sizdan mustasno emas. Sizni tashqi yaltiroqlik, zar, dabdabalik o'ziga tortishi aniq. Siz bir zumning o'zida yuzaga kelgan vaziyatga baho berasiz, shu onning o'zida biror qaror qabul qilasiz va uni astoydil himoya qilasiz. Siz uchun eng asosiysi- bu muvaffaqiyatga erishish. Buning qanday yo'l va baho bilan qo'lga kiritishning esa sizga ahamiyati yo'q. Balki qizil rang sizni o'zidan itarib turar, demak. Siz tez-tez ta'sirlanuvchan va oson zarar ko'radigan insonsiz. Har qanday yo'l bilan qiyin va ikki ma'noli vaziyatlardan

o'zingizni olib qochasiz va butun umr qo'ldan boy berilgan imkoniyatlarni deb afsuslanib yurasiz.

Sariq rang- bilimli, maqsad sari intiluvchan, hayotga muhabbat bilan qarovchi. Bu rangni yoqtirishingiz yorqin ko'rinadigan fantaziya va rivojlangan tasavvurni bildiradi. Sizning ijodkorlik qobiliyatingiz yaxshiroq mukofotga ega bo'lishga haqli. Agar siz o'zingizga to'g'ri keladigan umr yo'ldoshni topgan bo'lsangiz ayni muddao. Sariq rangni yoqtirmasangiz – demak siz tirishqoq va amaliyotchi aqlga egasiz. Biroq, xayol qila olish xususiyatingiz yo'qligidan biroz afsuslansa arziydi.

Ko'k – siz baxtli oilaviy hayotni ta'minlaydigan barcha yaxshi fazilatlarga egasiz. Ko'rinib turibdiki, qo'llagan choralaringiz sizga pand bermaydi. Siz muomalada o'ta sertakalluf , yumshoq tabiatlisiz. Har qanday holatda ham yo'l bo'shatishga tayyorsiz. Biroq siz baxtlimisiz ? Siz to'liq baxtli ekanligingizni o'zingiz uchun ham tan olishni ista'maysiz. Ko'k rangni unchalik yoqtirmaslik shaxsning maqsadga intiluvchanligini bildiradi. Biroq siz o'z xarakteringizning mukammal emasligi sababli azob chekasiz.

Oq rang- xayolparast, yolg'izlikni yoqtiradigan, qalbi pok. Siz iqtidorli va har tomonlama rivojlangan shaxssiz. Siz atrofdagilar bilan osonlikcha muloqot qilasiz. Umuman olganda sizda yaxshi fazilatlar juda ko'p, zero oq rang- butun borliqni tashkil etuvchilarning birlashmasidir.

Qora rangni yoqtiradigan insonlar siz boshqalar tasavvur qilganidek emassiz. Sizga adolatsiz tarzda yengiltaklik va bag'ritoshlik fazilatlarini biriktirib qo'yadilar. Buning oqibatida esa bekorga ishonchdan ayiradilar. Balki buning sababi sizning sirli ko'rinishingiz va ko'zga tashlanuvchan ta'sirchanligingizdir. Qora rangga salbiy munosabatda bo'lish va xushchaqchaqlik, atrof-muhit, bolalar, hayvonlarga muhabbatni bildiradi.

Yashil rangni xush ko'rishingiz sizning muvozanatlangan xarakteringiz va vijdonlilikdan dalolat beradi. Siz hozirjavobsiz, yordamingizga muhtoj insonlarga zo'r istak bilan ko'mak berasiz. Biroq, o'zingizni yolg'iz sezasiz. Balki atrofdagilar sizni biroz sovuqqon shaxs deb hisoblashadi. Siz yashil rangni yoqtirmasligingiz ,

afsuski, sizni irodangiz uncha kuchli emasligini va murakkab vaziyatlar oldida ojizlik qilishingizni bildiradi.

Siz jigarrangni yoqtirsangiz, bilingki, siz o'jarsiz. Bundan tashqari serg'ayrat va qo'rqmas shaxssiz. Nima bo'lganda ham oldingizga qo'ygan maqsadga erishasiz. Lekin, siz jigarrangni yoqtirmasangiz bu tiyrak aql, zehn va kuchli rivojlangan yumor xususiyatlardan darak beradi. Siz yolg'izlikni qiyinchilik bilan boshdan kechirasiz va shuning uchun yaqinlaringiz kamchiliklariga matonat bilan bardosh bera olasiz.³⁵

Bu kabi psixologik testlar va tadqiqotlar, albatta, barchaning e'tiborini tortadi. Sababi, har bir shaxsning o'zi va boshqalarning o'ziga xos xususiyatiga, ruhiyatiga va xarakterini o'rganishga qiziqishi yuqoridir. Bu qiziqish asosida nafaqat yoqtirgan rangiga qarab, balki qaysi oyda yoki faslda tug'ilganligiga qarab ham shaxsning xarakterini aniqlaydigan psixologik testlar ham paydo bo'lib, keng tarqaldi. Nafaqat, psixologik kitoblarda, balki gazeta-jurnallarda, ijtimoiy tarmoqlarda ham bunday testlarni uchratishimiz mumkin. Hattoki, Akademik litseylarning II kurs o'quvchilari uchun yaratilgan HO'AT darsligidagi "SIFAT VA UNING USLUBIYATI" mavzusida keltirilgan mashqlarning birida ham rang-tus sifatlariga oid psixologik matn keltirilgan. O'qituvchi o'quvchilarga rang-tus sifatlarini o'rgatishi uchun bu ayni muddaodir. Quyida darslikdagi mashqning matnini keltiramiz:

"245-mashq. «Ranglar jilosi» deb nomlangan matnni o'qing, sifatlarini topib ularning uslubiy xossalarini belgilang.

Oq rang tozalik, musaffolik, iffat, yorug'lik, donishmandlik, haqiqat va ezgu — iroda ramzidir. Bular oq rangning bir jihati, biroq boshqa jihatiga ko'ra u mota'm, o'lim, qo'rqoqlikni ifodalaydi. Yaponiya va Xitoyda aynan oq rang mota'm va qayg'u rangi hisoblanadi.

Qora rangli kiyim kiyishni yoqtiruvchi odam hamma narsalarga qarshi, o'jar. Isyon bilan hammasidan voz kechishni istaydi. Bu holat kishining kuch to'plashi uchun vaqtincha chekingan, tin olgan davriga muvofiq keladi. Qora

³⁵ Ziyoz.uz

rangning ijobiy sifatlari ham yo‘q emas: masalan, nikoh to‘ylarida kuyovning qora kastum-shimda bo‘lishi yoki qora kastum-shimning rasmiy marosimlarda kiyilishi bu rangning obro‘-e‘tibor, tantanavorlik ramzi ekanligini ham ifodalaydi.

Qizil rang inson hayotidagi eng kuchli hayajonni ifodalaydi. Mutaxassislarning kuzatuvlariga ko‘ra, kishining qizil rangli kiyim tanlashi uning o‘zini namoyon etishga bo‘lgan harakati bilan bog‘liq. Shuningdek, qizil tartibsizlik, inqilob, mavjud tartib-qoidalarga bo‘ysunmaslik, ularni rad etish alomati hamdir. Qizilning manbayi olov, u issiqlik va harorat beradi, shuningdek, u muhabbat rangi ham hisoblanadi.

Sariq rang — ochiqlik, faollik, ozodlikka va kuch-quvvatga intilish rangi. Sariq quyosh va yoz faslining rangi, u kelajakka umidvorlikni o‘zida ifodalaydi. Sariq oltin rangi bo‘lganligi uchun shon-shuhrat va ilohiy hukmronlik ramzi ham hisoblanadi.

Kulrang u na oq, na qora, o‘rtalikdagi neytral chegara rangdir. Kimki bu rangga ko‘proq moyil bo‘lsa, demak, u o‘zini hamma narsadan to‘sib chegaralab olishni, har qanday majburiyatlardan xalos bo‘lib, hech narsada ishtirok etmaslikni istaydi. Kulrang kiyingan odam boshqalarning o‘zi haqida bilishlarini ista‘maydi: kulrang — sirlarni yashirish xususiyatiga ega.

Ko‘k rang — ochiq osmon va dengiz rangi sifatida o‘zida yuksaklik va chuqurlikni ifoda etadi. Ruhshunos olimlar ko‘k rangning inson asablariga tinchlantiruvchi ta‘sir ko‘rsatishini aniqlagan. Boshqa jihatdan ko‘k beo‘ylik, turg‘unlik, hayotdan ajralib qolish kabilarni ifodalaydi. Havoyilik, havoyi o‘ylar kabi iboralar ham ko‘k rangning ana shu sifatlari bilan aloqador. Ko‘k sodiqlik va tartib-intizom rangi ham hisoblanadi.

Yashil rang — tiriklik, o‘shish va umid ramzi. Bahor fasli chechaklari rangi. Boshqa bir jihatiga ko‘ra u zahar, kasallik va g‘o‘rlikni ham bildiradi. Shuningdek, yashil rang mo‘l-ko‘lchilik, to‘kin-sochinlik, rivojlanishni ham bildiradi. Islom dinida yashil ilohiy rang sanaladi”.³⁶

³⁶ Nurmonova A., Sobirov A., Yusupova SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylarning II bosqich talabalari uchun darslik. Ilm ziyo, T.:2011-yil. B.-145.

Darslikda “Sifat darajalarining uslubiy xususiyatlari” mavzusida sifatning ma’no turlarini psixologiya fani bilan integrativ tarzda o’rgatishga xizmat qiluvchi yana bir mashq keltirilgan:

249-mashq. Sifatlarni toping. Ularning uslubiy xossalarini aniqlang.

ODAMNI BILISH

Ko‘z ravshan bo‘lsa, qalbning oqligi, xush-xurramlik belgisidir.

Ko‘z kichik bo‘lsa, ojizlik va g‘am-anduhga botganlik belgisidir.

Ko‘z yirik bo‘lsa, ablah va nodonlikdan dalolatdir.

Ko‘z harakatsiz, xira bo‘lsa ham ablahlikning dalilidir.

Ko‘z kichik va xira bo‘lsa, ochko‘z va molparast bo‘ladi.

Ko‘z tim qora bo‘lsa, badgumon va qo‘rqoqlikdan belgidir.

Ko‘z moviy bo‘lsa, besharm, bevafo, e’tiqodi va imon sustligi dalilidir.

Ko‘z yoshlanmaydigan (va benur) bo‘lsa, unday kishi odamlar qonini to‘kishga shay bo‘ladi.

Agar ko‘k, qora yo shahlo ko‘zda qora nuqtalar va feruzarang qo‘shilgan bo‘lsa, u kishining ichi qora, o‘zi shahvatga o‘chdir.

Kimning ko‘zi g‘oyat yaxshi ko‘rsa, uning achchig‘i tez chiqadir.

Kimki kulganda ko‘zida yosh yitillasa, u yaxshi xulq-atvor egasidir.

Kimki ko‘zini tez-tez yumib ochsa, u sodiq do‘st va yomon ishlardan xoli kishidir.³⁷

Ushbu mashqda sifatning ma’no turlaridan, nafaqat, rang-tus sifatlari, balki hajm-o‘lchov, xususiyat sifatlari ham alohida ahamiyat kasb etgan.

Yuqorida keltirilgan ta’riflar, albatta, nisbiy, ammo rang-tus sifatlarini o‘rganishga ahamiyatga egadir. Umuman olganda, integratsiya darsi o‘qituvchi tomonidan mavzular bir- biriga mos kelishi va puxta reja asosida tuzilgan bo‘lishi kerak. Shuningdek, o‘qituvchi ham darsga tayyorgarlik ko‘rayotganda, psixologik bilimlarini takrorlab olishi, psixologik tadqiqotlar va ularning natijalaridan xabardor bo‘lishi, darsda to‘g‘ri qo‘llay bilishi darkor.

³⁷ Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. (Akademik litseylarning II bosqich talabalari uchun darslik) Ilm ziyo, T.:2011-yil, B.-156.

Demak, o‘qituvchi integratsiya darsini tashkil qilishi uchun alohida tayyorgarlik ko‘rishi lozim.

2.2. Sifatning ma’no turlarini o‘rganishda adabiyot fanidan foydalanish

Ona tili va adabiyot fanlari bir biri bilan uzviy boq‘liqdir. Ular bir-biriga to‘ldiradi va taqozo etadi. A. Tvardovskiyning fikri bilan aytganda: “Ona tilisiz adabiyot go‘zalligini, adabiyotsiz ona tilini to‘liq egallash mumkin emas”³⁸ Shu sababli ba’zi tilshunoslarimiz ona tili va adabiyot darslari tashqi integartsiya emas, balki o‘zaro ikki tomonlama integratsiya, deya ta’kidlashadi. “ona tilini adabiyot fani bilan integratsiyalashni ikki tomonlama integartsiyalash deb yuritish xato bo‘lmaydi”³⁹

Ona tilida darslarida o‘quvchilarning og‘zaki va yozma nutqini o‘stirish, nutq madaniyatini rivojlantirish ushbu o‘quv fanini o‘qitishning asosiy maqsadlaridan sanalar ekan, ta’lim mazmuni ham, metod va usullari ham ana shu maqsadlarga xizmat qila oladigan etib belgilanadi. O‘quvchi nutqini shakllantirish va rivojlantirishda sifatning ma’no turlarining o‘rni beqiyosdir. Sababi, nutq egasi uslubiy neytral so‘zlar, so‘zshakllari, sintaktik birliklarni qo‘llab fikr bayon qilsa, o‘z fikrlarini tasvir muhokama tarzida yozma shakllantirsa, bunday nutq ta’sirchalik sifatiga ega bo‘lmaydi. Ta’sirchalik bo‘yoqdor so‘zlar, chiroyli o‘xshatishlar, shirali jumlar tuzish orqali yaratiladi. Ushbu unsurlarni shakllantirishda esa, xususiyat, rang-tus kabi bir qator sifat ma’no turlarining ahamiyati katta.

O‘quvchilarga sifatning ma’no turlarini o‘rgatishda adabiyot fanining o‘rni beqiyosdir. Sababi, shoir va yozuvchilarning asarlaridan sifatning ma’no turlari qatnashgan qismlaridan parchalar keltirib, topshiriqlar ishlab chiqish mumkin. Bunda o‘rgatuvchidan mahorat, ijodiy fikrlash va shu bilan birga topqirlik ham talab qilinadi. O‘qituvchi matn topishda turli asarlarga murojaat qilishi mumkin. Bugungi kundagi “Ona tili” darsliklarida badiiy asarlardan olingan terma gaplar,

³⁸ Твардовский А. О литературе. Москва, 1987. –Б. 296

³⁹ Niyozmetova R., Mavlonova K. Ona tili va adabiyot darslarini o‘zaro integrallash. / O‘zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. –T., 2016.-B. 116

parchalarga kengroq o‘rin ajratilayotganligining sababi ham nutqning kommunikativligini ta‘minlash zaruriyati bilan belgilanmoqda, desak xato bo‘lmaydi. Mashqlarda bunday matnlardan foydalanish o‘quvchilarning dunyoqarashiga ham, tarbiyasiga ham, nutqiga ham o‘zining ijobiy ta‘sirini ko‘rsatmoqda. 6-sinf ona tili darsligida ham mashqlar uchun matnlar badiiy asarlar, rivoyatlardan parchalar asosida keltirilgan. Xususan, darslikdagi “Xususiyat, hajm-o‘lchov, makon-zamon sifatleri” mavzusidagi 379-mashq matni O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan olingan:

379-mashq. Nuqtalar o‘rniga berilgan sifatlardan mosini qo‘yib ko‘chiring va ularga izoh bering.

Bultur bahorda eshigimiz oldidagi gullarni sug‘orayotgan edim, ...“Moskvich” kelib to‘xtadi. Mashina eshigi ochilib, ...gavdali yigit tushib keldi, taniy olmadim.

- Hormang, dehqonchilik zo‘r-ku! –dedi ... yigit do‘rillagan ovoz bilan.

Shunda hayratdan baqirib yubordim:

- Iya, Toymisan?

Ha, xuddi o‘sha Toyning o‘zi. Faqat shuncha bo‘y, bunaqa ... qo‘l-oyoqlarni qayoqdan oldi ekan?

- Poshsha oyimlarni ko‘rgani keldim! –dedi ... qomatiga uncha mos kelmaydigan alpozda muloyim jilmayib. (O‘. Hoshimov)

*So‘zlar: katta, notanish, bahaybat, yap-yangi, zabardast, uzun.*⁴⁰

Ushbu mashqni bajargan o‘quvchida topqirlik, hozirjavoblik, ma’noga qarab so‘z tanlay olish qobiliyati shakllanadi. Shu o‘rinda o‘qituvchi ona tili fanini adabiyot bilan integratsiyalashi kerak. Buning uchun o‘quvchilarga ushbu parcha sevimli yozuvchimiz O‘tkir Hoshimovning “Dunyoning ishlari” qissasidan olinganligi haqida ma’lumot berishi, o‘tgan o‘quv yilida adabiyot fanida ushbu asar bilan tanishganliklarini eslatib o‘tishi lozim. Shuningdek, o‘quvchilarga quyidagi savollar bilan murojaat qilishi mumkin:

⁴⁰ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. “Ona tili” 6-sinf. “Tasvir” T.:2009. -B. 136

1. “Dunyoning ishlari” qissasi kim haqida?
2. Siz 5-sinfda adabiyot darsida ushbu asardan keltirilgan qaysi hikoyalar bilan tanishgan edingiz?
3. Asarga xususiyat bildiruvchi sifatlardan 3 tasi orqali ta’rif bering? (Masalan, qiziqarli, ta’sirli, ibratli kabi)

Shunda, o‘quvchilar 1-2-savollar orqali 5-sinfda olgan bilimlarini takrorlab olsalar, 3-savol orqali esa fikrini xulosalashni o‘rganishadi.

Darlikdagi “Sifatning ma’no turlari” mavzusidagi 375-mashq matnida rivoyat beriladi:

375-mashq. Matnni o‘qib, sifatlarni aniqlang. Ularni ma’no guruhlariga ajrating.

Bir cholning to‘rtta navqiron o‘g‘li bor ekan. Bir kuni nihol:

— Men qarib qoldim. Ichingizdan kim aqlli va davlatmand bo‘lsa, menga merosxo‘r bo‘ladi,— debdi.

Eng katta o‘g‘il qizil yoqut ko‘zli oltin uzugini, ikkinchi o‘g‘il zarbof choponini, uchinchisi bebaho kamarini ko‘rsatib maqtanibdi.

Chol indamay turgan kenja o‘g‘ilga qarabdi.

— Menda bunday boyliklar yo‘q, lekin mehnatkash qo‘lim, botir yuragim, aqlli boshim bor, — debdi u.

Uning javobi cholga yoqibdi. Kenja o‘g‘ilga bor merosini qoldirishini aytibdi. (*Rivoyat*)⁴¹

Ushbu ibratli rivoyat o‘quvchi yoshiga mos tanlangan. Mashqni bajarish jarayonida o‘quvchi, nafaqat, lingvistik tahlilni amalga oshiradi, balki matnni o‘qish davomida mehnatkashlik, jasurlik va bilimli bo‘lishning afzalliklari haqida tushunchaga ega bo‘lishadi. O‘qituvchi darslikdagi ushbu mashqlarni bajartirish davomida darsning ta’limiy va tarbiyaviy maqsadlariga bir vaqtning o‘zida erishishi mumkin.

Akademik litseyning II kurs o‘quvchilari uchun yaratilgan “Hozirgi o‘zbek

⁴¹ Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. “Ona tili” 6-sinf uchun darslik. T.:2013.-B. 136

adabiy tili” darsligida sifatning ma’no guruhlari oid ma’lumotlar keltirilmagan. Sifatlarining uslubiy xususiyatlari, sifat darajalari, sifatlarining yasalishi kabilarga alohida to‘xtalib, atroflicha ma’lumotlar keltirilgan. Demak, o‘qituvchi o‘quvchilarga sifatning ma’no guruhlariga oid ma’lumotlarni eslatib o‘tishi, ma’lum bir topshiriqlar ishlab chiqishi lozim. Bunda, yuqorida keltirganimizdek, psixologiya, lingvokulturologiya va adabiyot bilan integrativ tarzda tashkil etishi mumkin. Darslik mashqlarining aksariyatida adabiy asarlardan parcha keltirilgan. Masalan, 248-mashqda turli yozuvchi va adiblar asarlaridan gaplar keltirilgan.

248-mashq. Ko‘chiring, sifatlarining ma’nodoshlarini topib yoniga yozib bering.

Namuna: 1. Yoshlardan yurak jo‘shqinligi, qalb qo‘ri, bilak kuchi, teran (zukko, yuksak) aql-idrok talab qilinadi. (*G‘aybulla as-Salom*) 2. Auditoriyaga qomatini tik tutgan, xushbichim, o‘ziga yarashgan kastum-shim, ustidan yupqa qavilgan beqasam to‘n kiygan, oyog‘ida zamonaviy tufli, bo‘ynida chiroyli galstugi, ko‘zida tilla gardishli ko‘zoynagi bor, kalta mo‘ylov qo‘ygan, moshrang do‘ppili kishi viqor bilan kirib keldi. (*B. Do‘stqorayev*) 3. Kattaqo‘rg‘on suv ombori o‘nlarcha chaqirimlarga cho‘zilib, kengayib zumrad ko‘l kabi adirlar o‘rtasida yoyilib yotadi. 4. XX asr ikkinchi yarmida dunyoning ijtimoiyot bilan juda jiddiy va juda chuqur shug‘ullanadigan qismida «globalizm» degan tushuncha vujudga keldi. (*I. G‘afurov*) 5. Aldov, makr, xiyonat bilan hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar ishonuvchan xalqlarni bir umrga tutqunga olish, johil bo‘lib qolish, mehnatdan boshi chiqmasligi, o‘zligi, qadr-qimmati, taqdiri, istiqboli haqida o‘ylamasligi uchun ozmuncha sa’y-harakat qilishmadi. 6. Chet ellarda vatandoshlar ona yurt haqida ko‘zidan yosh, titroq hayajon bilan gapirishlari, bir siqim tuprog‘ini ko‘ziga to‘tiyo qilishlari haqida o‘qigan, eshitgan edik, o‘zimiz guvoh bo‘ldik, deydi Anvar. (*S. Umirov*) 7. O‘zbekiston deb atalmish bizning mamlakatimizda mohir jurnalistlar anchagina. 8. Shayx Jaloliddin Kubrodek ulug‘ zotlar, Sulton Jaloliddin Manguberdidek bahodir farzandlar timsolida boshlangan va yarim asr davom etgan Vatan ozodligi uchun kurash ona xalqimiz uchun nihoyatda og‘ir kechdi. (*M. Abdullayev*)

Ushbu mashqni o‘quvchilarga “Kim zukko?” o‘yini orqali bajartirish mumkin. Bunda o‘quvchilar, avvalo, uch guruhga ajratib olinadi.

“Kim zukko” o‘yini. O‘qituvchi har bir guruh oldiga, bir xil torshiriqlarni yozib beradi. O‘quvchilar torshiriqni guruhda muhokama qilib, javobni yozib topshiradi. O‘qituvshi guruhlarni yozib topshirgan javoblarini o‘qib g‘olib guruhni taqdirlaydi.

Qaysi guruh so‘zlarning ma‘nodoshini ko‘proq topa olsa, shu guruh g‘olib hisoblanadi va ular rag‘batlantiriladi. Aytaylik, 1-guruh:

Tik (adl)

Xushbichim (kelishgan, chiroyli)

Chiroyli (bejirim)

Kalta (qisqa)

Mashqni ushbu o‘yin orqali o‘quvchilarga bajartirish ijobiy samarasini beradi. O‘quvchida raqobat hissi shakllanib, tezkorlik, hozirjavoblik va topqirlik kabi hislatlar shakllanadi.

O‘qituvchi darslikdagi mashqlardagi matnlardan tashqari, adabiyotimizning asosi hisoblangan tarixiy asarlardan tortib, hozirgi mustaqillik davrida yaratilgan asarlardan ham parchalar keltirishi mumkin. Topshriq uchun tanlangan matn, o‘quvchining yoshiga mos bo‘lishi lozim.

Ta’lim uslublari o‘quvchilarning qobiliyatini namoyon etishga, zehni o‘tkirlashga, tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilmog‘i zarur. SHu maqsadda she’riy san’atdan foydalanish, o‘rganilyotgan mavzularni sharhlash va izohlash kabilardan foydalanish maqbul yo‘l hisoblanadi. Bu uslublarda o‘quvchini rag‘batlantirish, uning o‘qishga bo‘lgan qiziqishini oshirish va qobiliyatini namoyon etishga xizmat qiladi. Ma’lumki, sifatning ma’no turlari adabiyotda o‘ta jozibador she’riy san’atlarni vujudga keltirishi mumkin. Bunday badiiy tasvir vositalari va she’riy san’at turlariga e’tiborni qaratish o‘z-o‘zidan “Sifatning ma’no guruhlari” mavzusini adabiyot darslari bilan integratsiyalashga undaydi. Xususan, tashbeh she’riy san’atining asosi bu - o‘xshatish. Bu san’atni hosil qilishda sifat asosiy o‘rin egallaydi:

Kimning himmati bo‘lmasa, u o‘lug,

Ekagun ajunda bu bo‘lmas ulug‘. (Y.X.Hojib)

Bundan tashqari, peyzaj, sifatlash badiiy san’atlari ham sifati asosida shakllanadi.

Peyzaj:

“Osmon ko‘m-ko‘k, ufqda xuddi atayin bo‘yab qo‘ygandek, qip-qizil bulut parchasi sudralib yuribdi...” (S.Ahmad, “Cho‘l burguti”)

Shuningdek, sifatlar narsaning belgi-xususiyatini turli nuqtai nazardan anglatadi. Ushbu belgilar bevosita insonga yoki borliqdagi jonli va jonsiz narsalarga tegishli bo‘lishi mumkin.⁴² Ma’lumki, adabiyot darslari ana shu belgilarni umumlashtirgan holda o‘quvchilarga go‘zallikni ko‘ra va seza bilish hissini, go‘zallikdan zavq ola bilish ko‘nikmasini hosil qilishga yordam bersa, ona tili darslaridan biri “Sifatning ma’no guruhlari” esa, bu ishlarni davom ettirish va chuqurlashtirish, go‘zallikni nutqda reallashtirish imkoniyatlarini bera oladi.

O‘zbek adabiyoti tarixidagi dastlabki didaktik asar Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida shaxs rang-tusini ifodalovchi sifatlari keltirilgan:

Eshitgil muni sen aya qirg‘u eng

“Ey qizg‘ish yuzli, sen buni eshit”.

Ushbu asarda rang bildiruvchi sifatlarning shundaylari ham mavjudki, “ular ikkinchi bir rangga nisbatan to‘q yoki ochlikni, boshqa bir rangga moyilroq ekanligini ham ko‘rish mumkin. Bunday sifatlari ma’nosini ochishda asosiy rangni ham, moyillik qilingan rangni ham, iloji boricha moyillik darajasini ham e’tiborda tutish zarur bo‘ladi⁴³

“Qip-qizil, to‘q qizil” ma’nosini ifodalovchi fors-tojikcha “arg‘uvon” o‘zlashmasi “Qutadg‘u bilig”da ishlatilgan:

Ta’mam arg‘uvan-teg qizil mengzim erdi

Bu kun zafaran urg‘in engde tarittim

“ Qizil yuzim mutlaq arg‘uvondek edi,

⁴² Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayeva SH. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. –T.: O‘zbekiston,1992. B.-89.

⁴³ Sodiqova M. Hozirgi o‘zbek tilida sifati... O‘qituvchi, -T.: 2002 -B. 66-67

Bu kun unga zafaron urug‘ini sepdim”.

Ushbu baytdagi arg‘uvan o‘zlashmasi asl turkiycha qizil sifati bilan bir ma‘noni anglatadi. Ammo, arg‘uvon sifati qizildan belgining ortiqligi jihatidan farqlanadi. U eski o‘zbek adabiy tilida faol qo‘llangan qip-qizilga ma‘nodosh.

O‘zbek tilining izohli lug‘atida ushbu so‘zga shunday ta‘rif beriladi:

Arg‘uvon. 1. Yog‘och o‘ymakorligida ishlatiladigan, bahorda ochiladigan qirmizi gulli bir daraxt (burchoqdoshlar oilasiga mansub daraxtlar turkumi). Ibodulla... otni bino oldidagi qator arg‘uvon daraxtlarining biriga bog‘lab qo‘ydi. H. G‘ulom, Mash‘al.

2. Shu darxtning guliga o‘xshash, qirmizi rang. Arg‘uvon yuz. Arg‘uvon shafaq. Yuzlaring olmadek yonar, g‘uncha arg‘uvonmusan. Mashrab.

Yuqorida keltirilgan ma‘lumotlar o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirishga, so‘zlarni nutqida to‘g‘ri qo‘llashga yordam beradi. Shuningdek, lug‘at bilan ishlash ko‘nikmasini shallantiradi. Bu ko‘nikmani yanada rivojlantirish, o‘quvchilarning so‘z boyligini oshirish maqsadida o‘qituvchi turli ta‘lim metodlaridan foydalanishi yoki o‘zi topshiriqlar tizimini yaratishi mumkin.

Quyida qaysi ta‘lim metodidan foydalanish mumkinligi borasida o‘z tavsifalarimizni beramiz:

“Insert” metodi

Metodning maqsadi: Mazkur metod o‘quvchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun xotira mashqi vazifasini ham o‘taydi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan input-matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangi mavzu mohiyatini yorituvchi matn ta‘lim oluvchilarga tarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyish etiladi;
- ta‘lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib,

o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

Belgilar	1-gap	2-gap	3-gap
“V”-tanish ma’lumotlar			
“?”- mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak			
“+”- bu ma’lumot men uchun yangilik			
“-“- bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman			

O‘quvchilarga 3ta gap yozilgan tarqatma ham tarqatiladi. O‘quvchilar gap tarkibidagi ajratib ko‘rsatilgan so‘zlarga munosabat bildirishadi. Ularni sifatning qaysi ma’no guruhiga oidligini ham aniqlaydilar.

1-gap. Nihoyat, shang‘i samovarchi jo‘mragi uchiga jez qoplangan choynakni va bir *olapes* piyolani yigitning oldiga do‘q etib qo‘yib ketdi.
(Oybek)

2-gap. *Abajurli* elektr chirog‘i xonaga yog‘du sohib, charaqlab turardi.
M. Xayrullayev, Ko‘ngil.

3-gap. Ular uchun ming mullaning so‘zidan yovjonlik SHokir-g‘ulomning bir og‘iz so‘zi ming marta *avloroq*. (S. Ayniy, Qullar)

Belgilangan vaqt yakunlangach, ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan so‘zlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi, ularning mohiyati to‘liq yoritiladi.

1-gap. Olapes 1. Badanida oqdog'lari bo'lgan; pes.

2. Tusi aynib, ola-bula bo'lib qolgan.

Piyolaning rangi oq va qora ranglar aralashmasidan iborat. Lekin bunda oq o'rinlar qora o'rinlarga nisbatan ko'proq, kattaroq bo'ladi. Bu so'z ma'nosida salbiylik uzvi ham bor. Mazkur uzvda esa piyoladagi kirlik, xiralik o'z ifodasini topgan.

2-gap. ABAJURLI- Abajur o'rnatilgan.

Bu so'zni tahlil qilishda, abajur so'zining izohini ham o'quvchilarga berish lozim:

ABAJUR [fr. abat-jour — yorug'likni qaytaruvchi] Kerakli yorug'likni bir joyga to'plab tushirish yoki ko'zni yorug'lik nuridan pana qilish uchun lampa ustiga o'rnatiladigan, shisha, mato, metall va sh.k. dan yasalgan qalpoq. Abajurdan taralgan ko'kish nur uning yuzida tovlanardi. S. Zunnunova, Yangi direktor.

3-gap. Avlo (a. — eng yaxshi, eng munosib) esk. kt. Nisbatan afzal, yaxshi.

O'quvchilarni ijod qilishga o'rgatish, izlanishga yo'naltirish, tasavvur, fantaziyani hosil qilish, o'qitishning zamonaviy usullariga kiradi. Jumladan, o'qituvchi darsga kirib, o'quvchilarni munozaraga chorlaydi. Muallim: «Bolalar, na'matak gulini hech kuzatganmisiz, uni batafsil tasvirlab bera olasizmi?» deya murojaat qiladi. So'ngra auditoriyadagi o'quvchilarni ikkita guruhga bo'lib, ularning biri na'matak gulini og'zaki ta'rif etadilar, ikkinchisi esa na'matak gulining tasvirini chizadilar. So'ngra shu asosda ular bahsga kirishadilar, o'qituvchi ularning fikrlariga yakun yasab, shoir va yozuvchi Oybekning «Na'matak» she'rini ifodali qilib aytib beradi. Ya'ni:

NA'MATAK

Nafis chayqaladi bir tup na'matak

Yuksakda, shamolning belanchagida.

Quyoshga ko'tarib bir savat oq gul,

Viqor-la o'shshaygan qoya labida

Nafis chayqaladi bir tup na'matak...

Mayin raqsiga hech qoniqmas ko'ngil,
Vahshiy toshlarga ham u berar fusun.
So'nmaydi yuzida yorqin tabassum,
Yanoqlarni tutib oltin bo'sa-chun
Quyoshga tutadi bir savat oq gul!

Poyida yig'laydi kumush qor yum-yum.
Nafis chayqaladi bir tup na'matak...
Shamol injularni separ chashmadak,
Boshida bir savat oq yulduz - chechak,
Nozik salomlari naqadar ma'sum!

Tog'lar havosining feruzasidan
Mayin tovlanadi butun niholi.
Vahshiy qoyalarning ajib ijodi:
Yuksakda raqs etar bir tup na'matak,
Quyoshga bir savat gul tutib xursand!

She'ni ifodali qilib aytishga o'rgatish ta'sirchanlikni oshiradi, adabiyotga muhabbat uyg'otadi (integratsiyaga erishiladi).

Ona tilini adabiyot bilan bog'lab o'qitishda o'quvchilar faoliyati muhim ro'l o'ynaydi. O'quvchi tafakkur qilish, faoliyat ko'rsatish bilan bilimlarni egallaydi, uning ongida paydo bo'lgan harakat tufayli tafakkur rivojlanadi.

Ma'lumki, o'zlashtirish jarayoni materialni his etish, anglash, bilish va malaka hosil qilish kabi holatlardan iborat. Fanlararo aloqa o'quvchilarda oldin o'zlashtirilganlarini yangi bilim bilan boyitishga, fakt va hodisalar mohiyatini tushunishga yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilarni voqea-hodisalar to'g'risida mustaqil fikr yuritadigan, o'z fikrini ilmiy jihatdan asoslaydigan bo'lishiga erishish uchun integrativ darslar tashkil qilishi, bilimlarni egallashga motivatsiya uyg'otishi zarur hisoblanadi. SHundan so'ng she'rga mos rasm chizishlari so'raladi. So'ngra o'quvchilar chizgan rasmlarini og'zaki tasvirlab beradilar. Tasvirlashda, sifat ma'no

guruhlaridan mohirona foydalanish talab etiladi. SHu jarayonda ularning nutqi ham rivojlanadi.

Integratsiyali ta'limni amalga oshirish jarayonida sifatning ma'no guruhlarini ana shunday holatda o'tish mumkin.

2.3. Sifatlarning ma'no turini talqin qilishda lingvokulturologiya sohasidan foydalanish

Integratsiya go'yoki bilim berishda zarur emasga o'xshaydi, biroq u insonning dunyoni kengroq tushunishi uchun bir yo'l bo'lib, u orqali o'quvchilar dunyoqarashi kengayadi: til, san'at, tarix, musiqa, madaniyatimiz va adabiyotimizning qonuniyatlarini chuqur anglaydi, aloqadorlikni bilib oladi. Ayniqsa, til va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog'liq tushunchalardir.

Til – madaniyatning ko'zgusi bo'lib, unda nafaqat insonni o'rab olgan real borliq, uning real yashash sharoitlari, balki xalqning ijtimoiy o'zini o'zi anglashi, uning mentaliteti, milliy xarakteri, hayot tarzi, an'analari, urf-odatlarini, axloqi, qadriyatlar yig'indisi va dunyoqarashi ham aks etadi.

Til – madaniyat xazinasini, sandig'i, majmuyidir. U leksika, grammatika, iboralar, maqol va matallar, folklor, badiiy va ilmiy adabiyot, og'zaki va yozma nutqda madaniy qadriyatlarni saqlab keladi⁴⁴.

Shuni ta'kidlash lozimki, agar til va madaniyat bir-birini taqozo etadigan, bir-biriga bog'liq ijtimoiy hodisa bo'lsa, bu ikkisining birlashishi natijasida alohida fan sifatida paydo bo'lishi, rivojlanishi lingvistikaning bir qismi sifatida o'rganilishi XX-XXI asrlarda jadal tus oldi. XX asrga kelib til va madaniyatning alohida fan sifatida tashkil etilishiga katta ehtiyoj paydo bo'ldi va lingvokulturologiya fani shu tariqa paydo bo'la boshladi.

Til va madaniyatni uyg'unlikda o'rganish masalasi dolzarbligi, tilshunoslikda yangi bir lingvistik oqim yuqorida ta'kidlab o'tganimiz

⁴⁴ Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. –London, 1971. –P. 27; ВерещагинЕ. М., КостомаровВ. Г. Языкикультура. –М., 1990. –С. 26.

lingvomadaniyatshunoslik fanining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Lingvokulturologiya bu tilshunoslik va madaniyatshunoslik fanlarining o'zaro to'qnashuvidan hosil bo'lgan murakkab ilmiy fan yo'nalishidir.


Har bir millatning o'ziga xos turmush tarzi, yashash muhiti va sharoiti, fikr hamda mulohazalarni qabul qilib, tushungan holda idrok etishi uning tilida aks etadi. Tilning milliy-madaniy belgisi bu, har bir xalqning yashayotgan joyining tabiati, u xalqning ijtimoiy- iqtisodiy tuzumi og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, san'ati, fani, urf-odatini o'zida aks ettirib, to'plab, avloddan- avlodga yetkazib berishidadir. Endi shakllanayotgan o'quvchi sifat turkumiga oid so'zlarni qanchalik ko'p bilsa, shuncha nutqi ta'sirchan, o'xshatishlarga boy bo'ladi. Ma'lumot o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, "O'zbek tilining izohli lug'ati" da 5000 ga yaqin belgi bildiruvchi so'zlar mavjuddir. Ushbu sifatlarning 540 tasi (200 tasi ijobiy bo'yoqli, 270 tasi salbiy bo'yoqli, 70 tasi neytral ma'noli sifatlar) xarakter-xususiyat bildiruvchi sifatlar, insonga xos holatni ifodalovchi sifatlar 550 tani, predmetga xos holatni bildiruvchi sifatlar 780 tani, turli hodisalarning belgilarini bildiruvchi sifatlar 420 tani, shakl-ko'rinish ifodalovchi sifatlar 50 tani, hid bildiruvchi sifatlar 14 tani, vazn bildiruvchi sifatlar 12 tasini, qolganlari esa rang-tus, hajm-o'lchov, o'rinsaytga munosabat bildiruvchi ya'ni makon-zamon sifatlarini tashkil qiladi. Bu statistik ma'lumot, albatta, nisbiy. Zero, o'zbek dialektida shevaga xos so'zlar orasida izohli lug'atga kiritilmagan ko'plab sifatlar mavjud.

Yuqoridagi statistik ma'lumotlarga asosida, sifatning ma'no guruhlariga oid so'zlarni madaniyatshunoslik fani bilan uyg'un tarzda ham o'rganish mumkin. Sababi, tilshunoslikda ma'lum bo'lmagan, faqat shevalarda uchraydigan, sifat ma'no guruhlaridan birini ifodalaydigan so'zlar ham mavjud. Ular orasida rang-tus sifatleri alohida ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, odamlar mahalliy madaniyati va odatlariga ko'ra, ranglarga turlicha ahamiyat berishlari mumkin. Masalan, ba'zi osiyoliklar qizil rangni omad va bayramlar bilan bog'lashadi, Afrikaning ayrim joylarida esa, uni mota'm rangi deb hisoblashadi. Har xil dinga e'tiqod qiluvchilar turli rangdagi kiyimlari bilan farqlanadi. Masalan, budda diniga e'tiqod qiluvchilarda pushti, nasroniylarda qora, musulmonlarda oq ranglardagi liboslar

kiyish odat bo‘lgan. Bundan tashqari, O‘rta Osiyo xalqlari orasida “Oq solar” udumi bo‘lib, u aza davrining tugashi mota‘m libosini tashlash odatidir. Marhumning qarindosh yoki yaqinlari vafot etgan yaqini xotirasi uchun dafn marosimida aza belgisi sifatida ko‘k, oq kiyim kiyganlar. Yil marosimida “oq solar” – motam libosini o‘zgartirish ma‘rakasi qilingan. Aksariyat azador ayollar bir-birining boshlariga biror kiyimlik mato qo‘yib, “oqing muborak bo‘lsin, ko‘rgan-kechirganing shu bo‘lsin, boshqa o‘lim bo‘lmasin” deyishgan. E‘tiborlisi shundaki, musulmon diniga e‘tiqod qiluvchi mamlakatlardagi mota‘m marosimlarida marhumning yaqinlari oq rangdagi libos kiyishsa, Turkiya, Ozarbayjon kabi davlatlarda mota‘m libosi sifatida qora rangdagi kiyim kiyishadi. Bu esa, yuqoridagi davlatlarning Yevropa mamlakatlariga yaqin joylashganligi, turli madaniyatlarning bir-biriga o‘zaro ta‘siri natijasidir.

O‘rta Osiyo hududidagi ko‘pchilik xalqlar orasida ishlatiladigan oq rang-tus sifatiga aloqador yana bir ata‘ma mavjud bo‘lib, u “oqsoqol” dir. Bu ata‘ma e‘tiborli, nufuzli, yoshi ulug‘ kishilarga nisbatan ishlatilgan. Urug‘doshlik jamiyatida oqsoqol – urug‘ boshlig‘i, feodallizm davrida patriarxal- feodal vakili. Hozirgi vaqtda ham bu ata‘ma o‘z ma‘nosini yo‘qotmagan.

Rang-tus sifatlari har bir millatning madaniyati, urf-odati bilan hamohang bo‘lib, xalqning turmush tarzi, dunyoqarashining o‘ziga xosligini ifodalaydi. Xalqimizda “qora” so‘zi bilan bog‘liq turli tushunchalar mavjud. “Qora” so‘zining bosh, asosiy ma‘nosi rang bo‘lsa, salbiy ma‘nosi bir nechtaadir.




“Qora” so‘zida yuqoridagi salbiy ma‘nolardan tashqari, ijobiy ma‘no ham mavjud. Qora so‘zi - “kuchli, qudratli” degan ma‘noni ham bildiradi. Bunga tilshunos olimlarimizdan biri Kononov Qoraxon (Qoraxoniylar sulolasi asoschisi) tipidagi so‘zlarni asos qilib ko‘rsatadi.

Oʻrta maktabning 6-sinf oʻquvchilariga rang-tus sifatlari mavzusini tushuntirayotganda, oq va qora rang bildiruvchi soʻzlarning mana shunday koʻchma maʼnolari haqida maʼlumot berish lozim, yoki oʻquvchilarning oʻzlariga quyidagi savol bilan murojaat qilish mumkin:

- Siz qora va oq soʻzlarini nutqingizda ishlatasizmi?
- Rang-tus mazmunidan tashqari ota-onangizdan, bobobuvilaringiz yoki oʻrtoqlaringizdan ushbu soʻzlarni qanday maʼnoda nutqlarida qoʻllashganini eshitgansiz?

Oʻquvchilar fikrlarini klasster asosida tushuntirib berishlari topshiriq tarzida beriladi.

Klasster usuli



Oʻquvchilarning fikrlari tinglanib, oʻqituvchi tomonidan umumlashtiriladi.

Oʻqituvchi oʻquvchilarga sifatning maʼno guruhlariga aʼloqador qiziqarli ertak, rivoyat yoki afsonalar ham soʻzlab berishi mumkin. Bunga misol qilib, Nuh paygʻambar haqidagi afsonani keltirishimiz mumkin.

“Nuh paygʻambar oilasi bilan birga kemadan chiqqandan soʻng, Xudo ularga rang-barang kamalakni koʻrsatdi. Bu, insoniyatni toʻfon orqali yoʻq qilmaslik haqidagi Uning vaʼdasini eslatib turadigan belgidir”.⁴⁵

Ushbu esda qoladigan va rangli timsol, chiroyli tarzda sifatlarning maʼno turlarini oʻrganayotgan oʻrganuvchi ongiga muhrlanib qoladi.

Sifatning maʼno guruhlarini oʻrgatishda xalq maqollaridan ham unumli foydalanish mumkin. Buning uchun, darslikda keltirilgan mashqlardan chekinib,

⁴⁵ Ziyonet.uz

o‘qituvchi topshiriq ishlab chiqishi lozim. O‘zbek xalq maqollari, hikmatli so‘zlar, ma’naviyatimizning go‘zal ifodasidir. Ona tili va lingvokulturologiya fanlarini uyg‘unlashtirishda maqollardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, bu jarayondan darsning mustahkamlash bosqichida foydalanish o‘rinlidir.

O‘quvchilarni kichik guruhlariga ajratib, “Davomini toping!” o‘yini o‘tkaziladi. Guruhlarga shunday topshiriq beriladi: “Chap ustundagi maqollarning davomini o‘ng ustundan toping, maqollar tarkibidagi sifatlarni aniqlab, ma’no guruhlariga ajrating!”

	Axmoqona farmonga		sabotli bo‘l!
	Achchiq-achchiq gapirib		maslahat so‘rama!
	Sinalmagan kishidan		odilona javob.
	Salobatli bo‘lma		shirin javob kutma!
	Chin so‘z -mo‘tabar		bolasi to‘q bo‘ladi.
	Bemaza qovunning		Yaxshi so‘z- muxtassar.
	Qo‘nog‘i ko‘p uyning		urug‘i ko‘p bo‘ladi.
	Maslahatli ish bitar		Bilimi zo‘r mingni yiqar.
	Tikansiz gul bo‘lmas,		Maslahatsiz ish yitar.
	Bilagi zo‘r birni yiqar		Mashaqqatsiz-hunar.

Ushbu o‘yinni akademik litsey o‘quvchilari bilan ham o‘tkazsa bo‘ladi. II kurs HO‘AT darsligida shunday mashq berilgan:

246-mashq. Maqol va hikmatlar ichidan sifat so‘z turkumiga oid so‘zlarni toping, sifatning otga o‘tish holati bormi?

Baxil boyga borguncha,
 Karamli tog‘ga borar.
 Baxildan tosh so‘raguncha,
 Gadoydan osh so‘ra.
 Nomardga yalinma,
 Bir baloga chalinma.
 Aqlsiz do‘stga kular,

Aqli do‘stini suyar.
 Johil ulfat — boshingga kulfat.
 Yaxshi do‘sting kuldirar,
 Yomon do‘sting kuydirar.
 Aybsiz do‘st izlagan do‘stsiz qolar.
 Issiq kiyim tanni iltar,
 Issiq so‘z jonni iltar.
 Noinsofga erk bersang, elni talar.⁴⁶

O‘quvchilarga ushbu mashqni ham “Davom ettir!” o‘yini asosida bajartirish mumkin.

“Davom ettir!” o‘yini

Sinf o‘quvchilari uch guruhga bo‘linadi. Har bir guruhdan bittadan o‘quvchi doskaga chiqadi. O‘qituvchi o‘quvchilarga quyidagi jadvalni beradi.

Chap ustundagi maqollarning davomini o‘ng ustundan toping, maqollar tarkibidagi sifatlarni aniqlab, ma’no guruhlariga ajrating!

	Baxil boyga borguncha,		
	Baxildan tosh so‘raguncha,		
	Nomardga yalinma,		
	Aqlsiz do‘stga kular,		
	Johil ulfat —		
	Yaxshi do‘sting kuldirar,		
	Aybsiz do‘st izlagan		
	Issiq kiyim tanni iltar,		
	Noinsofga erk bersang,		

Ushbu o‘yin o‘quvchilarda topqirlik, tezkorlik xususiyatlarini shakllantirishi bilan birga, ularda xalqning ming yillar davomida to‘plangan hayotiy tajribalari

⁴⁶ Nurmonov A, Sobirov A., Yusupova SH. “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” (Akademik litseylarning II bosqich talabalari uchun darslik) T.:2011-yil. B-137.

asosida shakllangan ibratli fikrlari aks etgan maqollarni yod olish imkoniga, sifat ma'no guruhlarini ajratish ko'nikmasiga ega bo'lishadi.

Maqoldan foydalanishning boisi shuki, u xalq donishmandligining lo'nda va ixcham ifodasidir. Ular o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga, qissadan hissa chiqarishga, o'z maqsadini bayon etishga undaydi. Maqollar o'zbek tilining eng go'zal, boy, nozik badiiy xususiyatlarini bilib olishda va so'z boyligini oshirishda katta ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilardan maqolning mazmunini sharhlatib qolmasdan, balki, maqolaga mos hikoyat, rivoyatlar aytirishlari mumkin yoki maqolga mos rasm chizishlari orqali fanlararo integratsiya metodi ham amalga oshadi.

Maqol kishi esida qoluvchi, o'ylashga fikr mulohaza yuritishga undaydigan janrdir. SHuning uchun ham sifat ma'no guruhlarini o'rganishda lingvokulturologiya fanidan foydalanish, uni bahs-munozaraga aylantirish, ma'nosini izohlatish kabilar foydadan holi emas.

III BOB. ISHNING AMALIYOTGA TATBIQI

3.1. Ochiq dars ishlanmasi

Tajriba-sinov ishlarini olib borish uchun maktab “Ona tili” va akademik litsey “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklari materiallarini o‘tish yuzasidan dars ishlanmalari (tavsiyalar) tayyorlandi.

Tajriba sinflarida esa sifat ma’no guruhlarini integrativ o‘rganish borasidagi tavsiyalarimiz asosida ish olib borildi.

Quyida sifat ma’no guruhlarini integrativ o‘rganish asosida tashkil qilingan dars ishlanmalarimizdan namunalar keltiramiz:

6-sinf uchun kichik guruhlar bilan ishlash metodi asosida tashkil qilingan darsning ishlanmasi.

Mavzu: 129-dars. Sifatlarning ma’no guruhleri.

I. Darsning maqsadi: O‘quvchilarga sifatning ma’no guruhleri xususidagi bilimlari mustahkamlanadi, ularda sifatning ma’no guruhlarini farqlash yuzasidan ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi.

II. Asosiy tushuncha va atamalar: Sifat, sifatlarning ma’no guruhleri, rang-tus, maza-ta’im, hajm-o‘lchov, hid, makon-zamon, xususiyat sifatleri.

O‘quv jarayonini tashkil etish texnologiyasi:

Metod: Kichik guruhlar bilan ishlash, “Sharhlash” usuli, “Intellektual-xarita” texnologiyasi, “Mashqlar bilan ishlash pragmatikasi” texnologiyasi.

Shakl: Guruhlarda ishlash.

Usul: Savol-javob, darslik bilan ishlash, mashq, musobaqa.

Vosita: Darslik, plakat, jadvallar, kompyuter, tarqatma materiallar.

III. O‘tilgan darsni takrorlash va uyga vazifani so‘rash:

Topshiriq: Uyga berilgan 373-mashq tekshiriladi. “Gulzorda” mavzusida matn tuzishi, unsa sifatlarining ozaytirma darajasidan foydalanish lozimligi talab qilingan. O‘quvchilardan bu vazifalar so‘ralib bo‘lingandan so‘ng, ular *“Ezgu so‘z”*, *“Ezgu fikr”* va *“Ezgu amal”* guruhlariga taqsimlanadi.

IV. Yangi mavzuning bayoni: Yangi mavzuni o‘rganish *“Zinama-zina”* o‘yini bilan boshlanadi. O‘qituvchi zina rasmni doskaga ilib qo‘yadi, guruhlariga shu

zinalar yordamida g‘alabaga erishishi mumkinligini aytadi. G‘oliblikka erishish uchun bir nechta zinalar bo‘lib, ularga chiqish uchun quyidagi topshiriqlarni bajarish lozimligi uqtiriladi: Birinchi zina **“Jadvalni to‘ldiring!”** bo‘lib, unda o‘quvchilar 1-topshiriqni bajartiriladi. Topshiriqqa binoan berilgan sifatlarni ma’nolariga ko‘ra jadvalga joylashtirishadi.

Shirin, qizil, katta, odobli, xushfe‘l, behisob, tonggi, kuzgi, xushbo‘y, muattar.

Xususiyat bildiruvchi sifatlar	Rang-tus bildiruvchi sifatlar	Maza-ta‘m bildiruvchi sifatlar	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlar	Hid bildiruvchi sifatlar	Makon-zamon bildiruvchi sifatlar

Shundan so‘ng o‘qituvchi slaydlar yordamida yangi mavzuga doir qoidalarni tushuntiradi.

V. Darsni mustahkamlash: “Ilm-xazina” o‘yini asosida ikkinchi zina topshiriqlari bajartiriladi. Unda 374-mashq talabiga ko‘ra gaplarni o‘qish, sifatlarni aniqlash, ularni ma’no guruhlariga ajratib yozish talab qilinadi. Bu mashq har bir o‘quvchiga individual tarzda bajartirilishi lozim. Mashqdagi matn tarkibidagi sifatlarni topib, ma’no guruhlariga ajratgan o‘quvchilar tinglanadi. Xatolari tuzattiriladi.

“Ijodkor o‘quvchi” deb nomlanuvchi 3-zinada 375-mashqni yozma hamda tasviriy bajartiriladi.

Bunda guruhlar mashq matni bilan tanishib, sifat turkumiga kiruvchi so‘zlarni topib, ma’no guruhlarini aniqlaydilar va quyidagi narsaning belgisini bildirib kelgan sifatlarni chizmada ham aks ettiradilar:

Yoqut ko‘zli uzuk

Zarbof chopon

Bebaho kamar

So‘nggi zina **“Davomini toping!”** deb nomlanib, bunda o‘qituvchi o‘zi tayyorlagan quyidagi topshiriqni beradi. “Chap ustundagi maqollarning davomini

o‘ng ustundan toping, maqollar tarkibidagi sifatlarni aniqlab, ma’no guruhlariga ajrating!”

	Axmoqona farmonga		sabotli bo‘l!
	Achchiq-achchiq gapirib		maslahat so‘rama!
	Sinalmagan kishidan		odilona javob.
	Salobatli bo‘lma		shirin javob kutma!
	Chin so‘z -mo‘tabar		bolasi to‘q bo‘ladi.
	Bemaza qovunning		Yaxshi so‘z- muxtassar.
	Qo‘nog‘i ko‘p uyning		urug‘i ko‘p bo‘ladi.
	Maslahatli ish bitar		Bilimi zo‘r mingni yiqar.
	Tikansiz gul bo‘lmas,		Maslahatsiz ish yitar.
	Bilagi zo‘r birni yiqar		Mashaqqatsiz-hunar.

Baholash. Dars yakunida guruhdagi barcha o‘quvchilar baholanadi va ma’naviy rag‘batlantiriladi.

Uyga vazifa: Darslikdagi 377-mashq uyga vazifa qilib beriladi.

Akademik litsey 2-bosqich sifat ma’no guruhlarini integrativ tarzda o‘rgatish asosida tashkil qilingan darsning ishlanmasi va texnologik xaritasi

DARS REJASI №4

Guruhlar	2-4T									
Dars o‘tkaziladigan sana	2-mart									

O‘quv fanining nomi: Hozirgi o‘zbek adabiy tili.

3.3. Ochiq dars ishlanmasi

Mavzu:	Sifat va uning uslubiyati
1.1. Ta’lim berish texnologiyasining modeli	
Mashg‘ulot vaqti – 80 daqiqa	O‘quvchilar soni – 28 ta

Mashg'ulot shakli	Mavzu bo'yicha bilimlarni kengaytirish va mustahkamlash yuzasidan nazariy va amaliy mashg'ulot.
Nazariy mashg'ulot rejasi	<ol style="list-style-type: none"> 1. Sifat haqida umumiy o'rta ta'limda olingan bilimlarni eslash. 2. Sifat ma'nodoshlari uslubiyati. 3. Sifat ma'no guruhlari
Maqsad, vazifalar	<p>Ta'limiy: O'quvchining mavzuga oid ko'nikmalarini hosil qilish, sifatlarning ma'nodoshlari uslubiyati, sifatning ma'no guruhlari haqidagi nazariy va amaliy bilimlarini mustahkamlash.</p> <p>Tarbiyaviy: Do'stlik, sadoqat, ilm olishga intilish kabi insoniy g'oyalarni o'quvchilar ongiga singdirish.</p> <p>Rivojlantiruvchi: O'quvchilarda mustaqil fikrlash va jadvallar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.</p>
Mavzuni o'zlashtirish uchun zaruriy bo'lgan adabiyot	<ol style="list-style-type: none"> 1. Nurmonov A., Sobirov A., Qosimova N. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litseylar talabalari uchun darslik. - Toshkent.: O'qituvchi, 2011. 2. N. Mahmudov, Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. Ona tili (6-sinf uchun darslik)-Toshkent.: "Tasvir", 2017 3. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov., Qodirov V., Jo'rayevaya Z. Ona tili (5-sinf uchun darslik)-Toshkent.: Ma'naviyat-2015 4. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent.: Moliya, 2003. <p>Internet saytlari: Ziyo.uz pedagog.uz ziyonet.uz kitob.uz</p>

<ul style="list-style-type: none"> ● Pedagogik vazifalar: ● Sifat ma'nodoshlari uslubiyati haqida ma'lumot berish ; ● Sifat ma'no guruhlari haqidagi bilimlarni umumlashtirish; ● Darsda integratsiyadan o'rinli foydalanish; 	<ul style="list-style-type: none"> ● O'quv faoliyati natijalari: ● Sifat ma'nodoshlari uslubiyati haqida so'zlab beradi; ● Sifat ma'no turlarini ajratish ko'nikmasi shakllanadi; ● Mavzu davomida turkiy tillar, psixologiya, adabiyot haqidagi bilimlari takrorlanadi;
Ta'lim berish usullari	Kichik guruhlarda ishlash, suhbat usuli, «VENN» diagrammasi, "Insert", "Aqliy hujum", "Galereya", metodlari
Ta'lim berish shakllari	Kichik guruhda ishlash.
Ta'lim berish vositalari	Darslik, tarqatma materiallar, kompyuter, slayd, qo'shimcha adabiyotlar
Ta'lim berish sharoiti	Texnik ta'minlangan, guruhlarda ishlash uchun mo'ljallangan auditoriya
Monitoring va baholash	Og'zaki nazorat: savol-javob, ijodiy yondashuv.

1.2. Nazariy mashg'ulotning texnologik xaritasi


Ish bosqichlari va vaqti	Faoliyat mazmuni	
	Ta'lim beruvchi	Ta'lim oluvchilar
Tayyorgarlik bosqichi	Mavzuni aniqlaydi, ta'limiy maqsadni belgilaydi va kutilayotgan natijalarni shakllantiradi. Belgilangan ta'limiy maqsadlarga mos o'quv-bilish topshiriqlarini ishlab chiqadi, taqdimot, tayyorlaydi. (1-ilova)	
1.O'quv mashg'ulotiga kirish bosqichi (15 daqiqa)	1.1.O'tilgan mavzuni mustahkam-laydi va yangi mavzuga ko'prikk yasaydi. Mavzu va adabiyotlar ro'yxatini berib, ularga qisqacha ta'rif beradi 1.2.Mavzuning nomlanishi, maqsadi va kutilayotgan natijalarini bayon etadi. 1.3.O'quvchilarni kichik guruhlarda ishlash texnikasi	Tinglaydilar, yozib oladilar Savollar bilan murojaat etadilar, aniq tasavvurlar tizimiga ega bo'ladilar. O'quvchilar

	<p>qoidalari bilan tanishtiradi.</p> <p>1.4.O`tilgan mavzu bo`yicha “Tahlil”, “VENN”diagramasi, “Insert” metodidan foydalanib tezkor so`rov o`tkazadi va talabalarni faollashtiradi.</p> <p>1.5.Ishchi guruhlarning o`quv topshiriqlarini bajarishi e`lon qilinadi.</p> <p>1.6.O`quvchilar bilimlarini faollashtirish maqsadida savollar beriladi.</p>	<p>berilgan savollarga javob beradilar</p> <p>O`quvchilar berilgan muammoli savol jadvalini to`ldirishadi</p> <p>O`quvchilar berilgan savollarga javob beradilar</p>
<p>2. Asosiy bosqich (55 daqiqa)</p>	<p>2.1.Mavzu bo`yicha mashg`ulot rejasi va asosiy tushunchalari bilan tanishishni taklif etadi.</p> <p>2.2.Slaydlarni namoyish qilish va izohlash bilan mavzu bo`yicha asosiy nazariy ma`lumotni tushuntirib beradi.</p> <p>2.3.O`quvchilar bilimlarini faollashtirish va mustahkamlash maqsadida savollar beradi.</p> <p>2.4. Sifatlarning uslubiyati, Sifat ma`no guruhlari haqida slayd namoyishi va og`zaki bayon usuli yordamida ma`lumotlar beriladi</p>	<p>Jadvalining ustunini to`ldiradilar.</p> <p>Tinglaydilar, yozadilar.</p> <p>Tinglaydilar, muhim joylarini o`z daftarlariga qayd etadilar.</p>
<p>3. Yakuniy bosqich (10 daqiqa)</p>	<p>3.1.Aniq tasavvurlar shakllanmagan qismlarini qayta tushuntiradi.</p> <p>3.2.Mavzu bo`yicha o`quvchilarda yuzaga kelgan savollarga javob beradi, faol o`quvchilar baholanadi. G`olib guruh aniqlanadi.</p> <p>3.2. 247-mashq uyga vazifa qilib beriladi</p>	<p>Savollar beradilar</p> <p>Topshiriqni yozib oladilar.</p>

1-ilova

Mavzu: Sifat va uning uslubiyati
Reja:



- 1. Sifat haqida umumiy o‘rta ta’limda olingan bilimlarni eslash.**
- 2. Sifat ma’nodoshlari uslubiyati.**
- 3. Sifat ma’no guruhlari**





2-ilova


O‘quvchilarni dars mobaynidagi baholash me’zoni

- ▶ Uyga vazifani bajarishi va daftarlarni yuritish holati – **1 ball**
- ▶ Darsda faol ishtirok etishi – **2 ball**
- ▶ Shartlar yuzasidan amaliy topshiriqlarni bajarishi – **2 ball**

Jami: 5 ball.  

Kun hikmati:



Ilmning avvali sukut, so‘ng eshitish, so‘ng yod olish, so‘ng amal qilish, so‘ng uni tarqatish.

Imom G`azzoliy

3-ilova

Dars davomida o'quvchilarga hamroh bo'ladigan **"Besh oltin qoida"**:



4-ilova

O'quvchilar 4 ta kichik guruhga bo'linadi. Guruhga nom tanlanadi. Guruhlar 5 ta shart asosida bellashishi aytib o'tiladi. Har bir shart 10 ballik me'yorda baholanadi.

**"Gurur"
guruhi**

**"Iftixor"
guruhi**

**"O'zlik"
guruhi**

**"Sharaf"
guruhi**

5-ilova

Uyga vazifani tekshirish va o'tgan mavzuni mustahkamlash.

1-shart: Matnni o'qing. Matnda keltirilgan ma'lumotlarga e'tibor bering.

Otlarni topib, grammatik qo'shimchalarini aniqlab, ustiga yozib ko'rsating.

"G'urur" guruhi. Tatar tilida sifatning quyidagi ma'no turlari ajratiladi. Bular:

- rang bildiruvchi sifatlar;

odamlarning tashqi ko'rinishi, xarakteri, psixik xususiyatlarini, predmet xususiyatlarini ifodalovchi sifatlar;

- holat darajasi, o'lchov-hajm bildiruvchi sifatlar;

- hid-maza bildiruvchi sifatlar;

odam, hayvonlarning fizik va jismoniy xususiyatlarini bildiruvchi sifatlar;

- shakl bildiruvchi sifatlar;

- mavhum xususiyatlarni bildiruvchi sifatlar;

- odamlarning subyektiv bahosini anglatuvchi sifatlar;

“Iftixor” guruhi. Turkman tilida sifatning quyidagi ma’no turlari beriladi:

- rang bildiruvchi sifatlar;
- holat-xususiyat bildiruvchi sifatlar;
- inson va hayvonlarning xarakter-xususiyatlarini bildiruvchi sifatlar;
- maza-ta’ m bildiruvchi sifatlar;
- o‘lchov-hajm bildiruvchi sifatlar;
- predmet joylashuvini bildiruvchi sifatlar;
- vaqt tushunchasini bildiruvchi sifatlar;
- o‘zakdan anglashilgan ma’noni ifodalaydigan sifatlar;
- o‘zakdan anglashilgan ma’noga ega emaslikni ifodalovchi sifatlar;
- predmetlarning o‘xshash xususiyatlarini ifodalovchi sifatlar;

“O‘zlik” guruhi. “Ozarbayjon tili grammatikasi”da sifatlarning rang bildiruvchi (girmizi, gara), hajm-o‘lchov bildiruvchi (dar, derin), inson va hayvonlarning fizik va fiziologik xususiyatlarini bildiruvchi (chovon, chocha) ma’naviy xarakter-xususiyatlarini bildiruvchi (chogach, tenbel), baholash sifatlarini bildiruvchi sifatlar (jaman, jaxshi) kabi ma’no turlari tasniflanadi.

“Sharaf” guruhi. Turk tilidagi sifatlar ma’nosiga ko‘ra quyidagicha tasniflanadi:

- rang bildiruvchi sifatlar;
- predmet yoki shaxsning xususiyatlarini bildiruvchi sifat;
- sezgi orqali his etiladigan holat-xususiyatlarni bildiruvchi sifat;
- fazo va makonni bildiruvchi sifatlar;
- tashqi fizik xususiyatlarini ifodalovchi so‘zlar;
- yuqoridagi guruhlarga kirmagan sifatlar.

6-ilova

2-shart. Sifat haqida bilimlarni takrorlash. “Ma’lumotlar zanjiri” metodi asosida

“Ma’lumotlar zanjiri” metodi

Bunda guruh ishtirokchilarining har biri sifat so‘z turkumiga oid o‘zlari bilgan ma’lumotlarni aytishadi. Ma’lumotlar birin-ketin zanjir ko‘rinishida aytilishi lozim. Bir ishtirokchi tomonidan aytilgan ma’lumot, boshqalar tomonidan aytilmasligi lozim. Agar, biror ishtirokchi ma’lumot

7-ilova

Yangi mavzu bayoni:

Aziz o'quvchilar, mana siz sifat yuzasidan olgan bilimlaringizni takrorlab oldingiz. Endi sifat so'z turkumiga xos yana ba'zi xususiyatlarni ham bilim olishimiz lozim.


Sinfingizdagi mavjud narsalar: stol, stul; devorga osilgan taxta; o'quv qurollaringiz, kitob, daftar, qalam, ruchka va boshqalarning hammasi ma'lum belgilarga (rang, hajm, shakl — xususiyat kabi) ega. Masalan, stol ko'k, sariq; baland, past, katta-kichik singari hajm-shaklga ega. Ana shunday belgilarni ifodalovchi so'zlarning sifat hisoblanishi haqida o'rta umumiy ta'limda ma'lumot olgansiz.

Ma'lum belgi bir necha so'zlar orqali ifodalanishi ham mumkin. Masalan: katta, ulug', ulkan, buyuk, gigant; chiroyli, go'zal, xushro'y, bejirim va boshq. Bunday so'zlar muayyan bir umumiy ma'no asosida birlashsalar ham, lekin ular birbiridan ma'lum farqlanishga ham ega. Bunday farqlanish ularning boshqa so'zlar bilan bog'lanishida, ma'lum uslubga xoslanishida aniq namoyon bo'ladi. Masalan, *odam* so'zi katta, *buyuk*, *ulkan*, *ulug'* sifatlarini qabul qila oladi, lekin *gigant* sifati odam bilan bog'lana olmaydi. Chunki u qurilishlarda binolarning shakl-belgisini ifodalashga xoslangan. Shuningdek, *ulug'*, *buyuk* so'zlari shakl belgisidan tashqari xususiyat belgisini ham ifodalaydi. Bunday vaqtda ular bilan ma'nodosh bo'lib keladi. *Uulkan*, *gigant* so'zlarida esa bunday ma'no yo'qligi uchun ular bilan ma'nodoshlikni hosil qila olmaydi.

Shuning uchun ham sifatning ma'nodoshlarini bilish va o'z o'rnida qo'llay bilishi so'zlovchining nutqiy mahoratini ko'rsatadi.

Eslatib o'tishimiz lozimki, sifatning quyidagi ma'no guruhlar mavjud:


Sifat ma'no guruhlari




8-ilova

Yangi mavzuni mustahkamlash. "Venn" diagrammasi


3-shart. Yuqorida sizga o'zbek tili bilan bir oilaga mansub, qardosh xalqlar tillarida sifat qanday ma'no guruhlariga bo'linishini bilib oldingiz. Ushbu shartda ularni o'zbek tilidagi sifat ma'no guruhlari bilan qanday farqi yoki o'xshash tomoni borligini aniqlaysiz.




“G‘urur” guruhi:




“Iftixor” guruhi



“O‘zlik” guruhi



“Sharaf” guruhi



10-ilova

4-shart. “Insert” metodi

Belgilar	1-matn	2-matn	3-matn
“V”-tanish ma’lumotlar			
“?”- mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak			
“+”- bu ma’lumot men uchun yangilik			
“-“- bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman			

Tahlil uchun gaplar

- ▶ 1-gap. Nihoyat, shang‘i samovarchi jo‘mrangi uchiga jez qoplangan choynakni va bir *olapes* piyolani yigitning oldiga do‘q etib qo‘yib ketdi. (Oybek)
- ▶ 2-gap. *Abajurli* elektr chirog‘i xonaga yog‘du sochib, charaqlab turardi. M. Xayrullayev, Ko‘ngil.
- ▶ 3-gap. Ular uchun ming mullaning so‘zidan yovjonlik SHokir-g‘ulomning bir og‘iz so‘zi ming marta *avloroq*. (S. Ayniy, Qullar)

11-ilova

246-mashq. Chap ustundagi maqollarning davomini o‘ng ustundan toping, maqollar tarkibidagi sifatlarni aniqlab, ma’no guruhlariga ajrating!

	Baxil boyga borguncha,		
	Baxildan tosh so‘raguncha,		
	Nomardga yalinma,		
	Aqlsiz do‘stga kular,		
	Johil ulfat —		
	Yaxshi do‘sting kuldirar,		
	Aybsiz do‘st izlagan		
	Issiq kiyim tanni ilitar,		
	Noinsofga erk bersang,		

Uyga vazifa:

- Mavzuga oid adabiyotlardan mavzuni konspektlashtirish va tahlil qilish. Badiiy asardan sifat ma’no guruhleri qatnashgan parcha yozib kelish.

3.2. Sifatning ma'no turlarini integrativ yondashuv asosida o'rganishga doir so'rovnoma

Darslik asosida an'anaviy tarzda o'tilgan darslar bilan bitiruv malakaviy ishda keltirilgan integratsiya asosidagi innovatsion texnologiyalar va ijodiy xarakterdagi mashq va topshiriqlar tizimidan foydalanilgan noan'anaviy dars shakli orasidagi farq o'quvchilar orasida olib borilgan so'rovnoma savollariga berilgan javoblarning natijalaridan ko'rinib turibdi.

So'rovnomaga quyidagi savollar joylashtirildi:

1. Sifat ma'no guruhlarini o'rganish qanday tashkil etilishini xohlaysiz?

A. Noan'anaviy shaklda. B. Suhbat asosida. C. Darslarning bir xil tarzda olib borilgani ma'qul.

2. Sifat ma'no guruhlarini o'qitishda integrative yondashuvdan foydalanish sizga ma'qulmi?

A. Ma'qul. B. Ma'qul emas. C. Ona tilini boshqa fanlar bog'lash shart emas.

3. Sifat ma'no guruhlarini o'qitishda integrative yondashuvdan foydalanishning qaysi jihatlari bilan sizga yoqadi?

A. Dars qiziqarli o'tadi B. Boshqa fanlar yuzasidan bilimlarimiz takrorlanadi, dunyoqarashimiz kengayadi C. A va B.

4. Sifat ma'no guruhlarini o'qitishda integrative yondashuvdan foydalanganda qaysi fanlar bilan bog'lashni xohlaysiz?

A. Tabiiy fanlar bilan B. Ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan C. Aniq fanlar bilan

5. "Insert", "Venn diagrammasi" kabi metodlar bilan tanishmisiz?

A. Ha B. Yo'q C. Eng ko'p qo'llaydigan metodlar hisoblanadi.

6. "Ma'lumotlar zanjiri", "Davomini toping", "O'yin" texnologiyalari bilan tanishmisiz?

A. Yo'q B. Deyarli tanishmiz C. Hammasi bilan emas

7. Ushbu metodlardan foydalangan holda dars o'tish qiziqarlimi?

A. Ha B. Yo'q. O'yinga aylanib ketadi C. Hamma faollashadi va baholanadi

Anketada jami 28 ta o'quvchi qatnashdi va natijalari quyidagi jadvalda keltiriladi:

Savollarning tartib raqami	A javobni belgilaganlar	B javobni belgilaganlar	C javobni belgilaganlar
1-savol	17	6	5
2-savol	19	6	3
3-savol	5	5	18
4-savol	14	12	2
5-savol	10	3	15
6-savol	12	3	13
7-savol	9	5	14

Sifatning ma'no guruhlarini integrativ yondashuv asosida o'qitishga oid darslarning noan'anaviy tarzda tashkil etilgan guruhdagi baholangan o'quvchilar soni an'anaviy tarzda tashkil etilgan guruh o'quvchilari soniga qaraganda ko'proqni tashkil qildi. Shularga tayangan holda sifat ma'no guruhlarini integrativ yondashuv asosida o'qitishga va darsda innovatsion texnologiyalarni tatbiq qilgan holda tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, maktab, akademik litsey hamda Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilari orasida so'rovnoma o'tkazildi. Quyida so'rovnoma namunasini keltiramiz:

**Sifatning ma'no turlarini integrativ yondashuv asosida o'rganishga doir
SO'ROVNOMA**

O'qituvchi: _____

Ta'lim muassasasi:

1. Sifatning ma'no guruhlarini o'rganishda qiyosiy integratsiyadan foydalanish borasidagi fikringiz

2. Sifatning ma'no guruhlarini o'rganishda psixologiya sohasidan foydalanishga doir fikringiz

3. Sifatning ma'no guruhlarini o'rganishda adabiyot fanidan foydalanish borasidagi fikringiz

4. Sifatning ma'no guruhlarini o'rganishda lingvokulturologiya sohasidan foydalanishga doir fikringiz

5. Sifatning ma'no guruhlarini o'rganishda yana qanday fanlar bilan integratsiyadan foydalanishni tavsiya qilasiz?

So'rovnomada o'rta umumta'lim maktablarining tajribali ona tili va adabiyot o'qituvchilaridan 3 nafari, akademik litsey ona tili va adabiyot o'qituvchilaridan 3 nafari, Oliy ta'lim muassasalari o'qituvchilarining 3 nafari ishtirok etishdi.

Quyidagi jadvalda so'rovnoma natijalarini keltiramiz:

- + - Foydalanish kerak
- Foydalanish kerak emas

T / R	I.F.O	Fanlar				
		Qiyosiy integratsi ya	Psixologi ya	Adabiyot	Lingvokul turologiya	Taklif lar
1	Diyorova SH.	–	+	+	+	Tasviriy san'at
2	Porstillayeva M	–	–	+	+	Botanika
3	Qurolova L	–	+	+	+	Tasviriy san'at
4	Qurbonova E	+	+	+	+	Biologiy a
5	To'ychiyeva M	+	–	+	+	Sohasiga qarab bog'lash
6	Yusupova T	+	+	+	+	
7	f.f.d (PhD) Abdurahmonova N	+	+	+	+	Geografi ya, geometri ya
8	Yondasheva T	+	+	+	+	Barcha ijtimoiy fanlar

XULOSA

Bitiruv malakaviy ishi yuzadan quyidagi xulosalarga kelindi:

Ta'lim bosqichlarida sifat ma'no guruhlarini o'rganishda innovatsion texnologiyalardan foydalanishga oid amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining, shuningdek, fan dasturi va darsliklarining tahlili natijalari quyidagi xulosalarni chiqarish imkonini berdi:

1. O'zbek tilshunosligida Sifat ma'no guruhlarini integrative yondashuv asosida o'rganish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmagan. Ammo sifat ma'no guruhlarini tasnifi masalasida I.Hamdamiyova, M.Sodiqova, A.Hoshimov, F.Najmiddinov kabi tilshunos olimlarimiz o'zlarining qimmatli fikrlarini aytib o'tishgan.

Ona tili va adabiyot fanlarini integratsiyalash borasida Niyozmetova R., Mavlonova K. larning "Ona tili va adabiyot darslarini o'zaro integrallash" nomli maqolalari ko'rib chiqildi.

O'quv fanlari va mavzularni integratsiyalashning ilmiy, pedagogik asoslarini ishlab chiqish natijasida ta'lim samaradorligi oshadi hamda ortiqcha kuch, zo'riqish sarflanishlarining oldi olinadi. Shuning uchun biz aynan ta'limga integrativ yondashuv muammosini tadqiq etish bu ma'lum bir mavzularni o'qitish masalasi bugungi kunda dolzarb muammolardan biriga aylangan. Chunki integratsiya orqali dars tashkil qilinsa yoki ma'lum bir bilimlarni o'rganishda qo'llanilsa, nafaqat, dars qiziqarli o'tadi, balki o'quvchilar dunyoqarashi kengayadi, atroflisha bilimga ega bo'ladi va mavzuni yaxshiroq tushunadi.

2. Umumta'lim maktablarining "Ona tili" o'quv dasturidan o'rin olgan "Sifatning ma'no guruhlarini" mavzusi va ular uchun ajratilgan o'quv soatlari o'quvchilarga bu bo'lim yuzasidan yetarlicha bilim berishga, ularda shu mavzular bo'yicha ko'nikma va malakalar hosil qilishga imkon beradi. Darsliklarda mavzuga oid termin-tushunchalar, o'qitilishi lozim bo'lgan grammatik qoidalar, ulardagi ilmiylik o'quvchida bu mavzu yuzasidan yetarlicha bilim olishga, ko'nikma va malakalar hosil

qilishga mo'ljallangan. Sifatning ma'no guruhlarini integrativ tarzda o'rganish o'quvchining tafakkurini o'stirishga, bog'lanishli nutqini shakllantirishga, ularning so'z boyligini oshirishga, ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishga yordam berishi ishimizda bayon qilingan. Akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv dasturini umumta'lim maktablarining "Ona tili" o'quv dasturining uzviy davomi deb aytish mumkin, chunki maktab dasturida sof nazariy leksik bilimlar berilishi nazarda tutilgan bo'lsa, akademik litseylarning bu o'quv dasturida uning uslubiy xususiyatlariga e'tibor berish ko'zda tutilgan. Ammo, umumta'lim maktablarining ona tili darsliklari o'rtasida sifat ma'no guruhlarlari turli xil tasniflangan bo'lsa, akademik litseyning HO'AT darsligida esa bu masalaga umuman to'xtanilmagan. Xulosa shuki, ushbu mavzu umumta'lim maktablarining "Ona tili" va akademik litseylarning "Hozirgi o'zbek adabiy tili" o'quv dasturlari darsliklarida "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da aks ettirilgan ta'limning uzviyligi va uzluksizligi, nazariya va amaliyotning o'zaro aloqadorligi tamoyili talablariga mos tarzda aks ettirilmagan.

3. Integratsiya jarayoni hozirgi zamon sharoitida insoniyat faoliyatining barcha sohalariga tez sur'atlar bilan kirib bormoqda. "Fanlar integratsiyasi"-deyilganda turli sohadagi bilimlarni, ilmiy tadqiqotlarning umumiy vazifalarini o'zaro biriktirib o'rganilish tushuniladi. Sifatning ma'no turlarini o'rganishda adabiyot, tasviriy san'at, lingvokulturologiya, psixologiya kabi bir qator fanlar bilan integrativ tarzda o'rganish mumkin.

Demak, o'quvchilarga sifatning ma'no turlaridan rang-tus sifatlarini psixologiya bilan uyg'unlikda o'rganish ham qiziqarli, ham foyadalidir. Bunda darsning dam olish daqiqalarida, rang-tus sifatlarining inson psixikasiga ta'siri borasidagi psixolog olimlarning tadqiqotlari va ularning natijasini qiziqarli ma'lumot sifatida aytib berish mumkin.

4. O'quvchilarga sifatning ma'no turlarini o'rgatishda adabiyot fanining o'rni beqiyosdir. Sababi, shoir va yozuvchilarning asarlaridan sifatning ma'no turlari qatnashgan qismlaridan parchalar keltirib, topshiriqlar ishlab chiqish mumkin. Bunda o'rgatuvchidan mahorat, ijodiy fikrlash va shu bilan birga topqirlik

ham talab qilinadi. O'qituvchi matn topishda turli asarlarga murojaat qilishi mumkin. Bugungi kundagi "Ona tili" darsliklarida badiiy asarlardan olingan terma gaplar, parchalarga kengroq o'rin ajratilayotganligining sababi ham nutqning kommunikativligini ta'minlash zaruriyati bilan belgilanmoqda, desak xato bo'lmaydi. Mashqlarda bunday matnlardan foydalanish o'quvchilarning dunyoqarashiga ham, tarbiyasiga ham, nutqiga ham o'zining ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda.

5. Har bir millatning o'ziga xos turmush tarzi, yashash muhiti va sharoiti, fikr hamda mulohazalarni qabul qilib, tushungan holda idrok etishi uning tilida aks etadi. Tilning milliy-madaniy belgisi bu, har bir xalqning yashayotgan joyining tabiati, u xalqning ijtimoiy- iqtisodiy tuzumi og'zaki ijodiyoti, badiiy adabiyoti, san'ati, fani, san'ati, fani, urf-odatini o'zida aks ettirib, to'plab, avloddan- avlodga yetkazib berishidir. Endi shakllanayotgan o'quvchi sifat turkumiga oid so'zlarni qanchalik ko'p bilsa, shuncha nutqi ta'sirchan, o'xshatishlarga boy bo'ladi. O'qituvchi o'quvchilarga sifatning ma'no guruhlariga a'loqador, xalqimizning o'ziga xos madaniyatini, urf-odatlarini, mentall xususiyatlarini ko'rsatib bera oladigan qiziqarli ertak, rivoyat yoki afsonalar ham so'zlab berishi, xalq maqollaridan foydalangan holda topshiriqlar ishlab chiqishi mumkin.

6. Sifatning ma'no guruhlarini integrativ yondashuv asosida o'rganish darslari innovatsion texnologiya asosida tashkil qilinganda, asosan, o'quvchilarda hamkorlikda ishlash ko'nikmasi shakllanadi, umumiy vazifalar yechimini topishda bir-birlariga ko'mak beradilar, o'quvchilarda ijodiy va mustaqil fikrlash malakalari tarkib topadi, o'quvchilar o'z ishlari natijasiga, o'qishga, ta'lim olishga shaxsan mas'ullikni his qiladilar. "Aqliy hujum", "Klaster yoki tarmoqlanish", "Insert", "Venn diagrammasi" kabi texnologiyalarni, "Kim zukko?", "Davom ettir" kabi o'yin texnologiyasiga xos metodlarni sanab o'tdik.

7. Ona tili darslarida "Sifat ma'no guruhlari" mavzusini integrativ o'qitishda qo'llaniladigan mashq va topshiriqlar tizimini ishlab chiqdik. Shuningdek, akademik litsey hamda Oliy ta'lim muassasalari talabalarining mavzu yuzasidan bilimni takrorlash hamda dunyoqarashi, tafakkurini kengaytirish

maqsadida qiyosiy integratsiya va ular ustida ishlab chiqilgan topshiriqlarni tavsiya qildik.

Tayanch soʻzlarning oʻzbekcha-inglizcha lugʻati

Adabiy til – literary language

Adabiyot – literature

Amaliy – practical, applied

Amaliy ish – practical work

Anʼanaviy – traditional

Asosiy – main, chief, principal, fundamental

Axborot – report, information

Dars – lesson, class, occupation

Darslik – textbook, manual, primer

Dastur – reversing rod

Dolzarb – peak, culmination

Erkin – free

Fan – science, subject

Faol – active

Faoliyat – activity

Fikr – idea, thought, opinion

Foydalanish – use, using, useful

Hajm – size

Ijobiy – positive, favourable

Ijodkorlik – creation

Ilmiy – scientific

Integratsiya – integration

Izchil – successive, consecutive

Izoh bermoq – explain

Izohli lugʻat – dictionary

Joriy etmoq – put into practice, introduce

Kasb – profession
Kasb-hunar kollejlari – professional colleges
Kompyuter – computer
Ko‘rsatmali – graphic, obvious
Malakali – experienced, skilled
Maqsadga muvofiq – expedient
Mashg‘ulot – occupation, studies
Mavzu – subject, theme
Maza-ta‘m – taste
Metodik – systematic, methodologic
Muallim (o‘qituvchi) – teacher
Og‘zaki – oral, verbal
O‘qitish – teaching
O‘qitmoq – teach
O‘quvchi – pupil
O‘rganmoq – learn, study, master
O‘yin – play, game
O‘zlashtirmoq – master, acquire, assimilate (a subject, profession)
Pedagogik – pedagogical, educational
Psixologiya – psychology
Qiziqarli – interesting, interestingly
Rang – colour
Rivojlantirish – fostering, developing
Sifat – adjective
Tahlil qilmoq – analyze
Taqdim qilmoq – present smb. (with), offer
Tarbiyalamoq – bring up, educate
Tatbiq etmoq – apply, employ, use
Texnologiya – technology
Tilshunos – linguist

Umumta'lim – public education

Usul – method, way

Uzluksiz – uninterrupted, continuous

Uzviy – organic

Vosita – instrument, means, ways, methods

Xulosa – conclusion, summary

Xususiyat – peculiarity

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to‘g‘risida”gi PF-4797 sonli Farmoni. 2016-yil 13- may.
2. Mirziyoyev SH. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan quramiz.–Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
3. Mirziyoyev Sh. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash–yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “ Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori.// Xalq so‘zi, 2017- yil, 21-aprel
5. Karimov I. Ona yurtimiz baxt-u iqboli va buyuk kelajagi yo‘lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir.-T.:O‘zbekiston, 2015.
6. 2017-yil 7-dekabrda O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ishtirokida davlat mukofotlarini tantanali topshirishga bag‘ishlangan yig‘ilishdagi nutqi.
7. Karimov I. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. -T., 2011.
8. Karimov I. Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch. Ma’naviyat, T., 2008.
9. Abdurahmonova S. Davr va ona tili muammolari//Ma’rifat, 2018-yil 16-may.
10. Абдураимов Ш. С. Касб таълими ўқитувчиларини тайёрлаш сифатини таъминлашда тармоқлараро амалий интеграция. – Тошкент: Наврўз, 2014.
11. Eshmuratov M.T. Innovatsion texnologiyalar o‘quv jarayonida.T.,-2011.
12. Грамматика азербайджанского языка. 1973.
13. Грамматика туркменского языка. 1-часть, -Ашхабад ИЛМ, 1970.
14. Hojiyev A. Tilshunoslik terminlarining izohli lug‘ati. T.: 2002.
15. Ikromov R., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva SH., Shodmonqulova D. “Ona tili” (4-sinf uchun darslik)-T., O‘qituvchi, -2017.
16. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Shodmonqulova D. “Ona tili” Umumiy o‘rta ta’lim maktablarning 4-sinfi uchun darslik. O‘qituvchi, T., 2017.
17. Кононов А. Грамматика современного туркского литературного языка.-М.-Л. : Изд-во АН СССР, 1941.
18. Кононов А.Н. Грамматика современного ўзбекского литературного языка. –М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1948.
19. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov., Qodirov V., Jo‘ravoyeva Z. Ona tili (5-sinf uchun darslik) -Toshkent.:Ma’naviyat-2015.

20. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D. "Ona tili" (6-sinf uchun darslik) T., 2013
21. Mengliyev B., Xoliyorov O'. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T., 2008.
22. Mirzayeva F. Kasbiy fanlarni o'qitishda ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanish. Uslubiy qo'llanma. T., 2013.
23. Muhmedov O'. va boshqalar. Ta'limni tashkil etishda zamonaviy interfaol metodlar. O'quv-uslubiy tavsiyalar. -T., 2016
24. Мавлонова Р., Раҳмақулова Н. Бошланғич таълимни интеграциялаш. Тошкент 2011-йил.
25. Niyozova R., Mavlonova K. Ona tili va adabiyot darslarini o'zaro integrallash. // O'zbek tilshunosligining dolzarb masalalari. -T., 2016.
26. Nurmonova A., Sobirov A., Yusupova SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili (Akademik litseylarning III bosqich talabalari uchun darslik) T.: 2011-yil
27. Поковская А. Классификация тюркских прилагательных по их семитическим признакам. Тюркское языкознание. -Т., Фан, 1985.
28. O'zbek tili grammatikasi. -J.I.
29. O'zbek tilining izohli lug'ati. V jild. T., 2006-2008.
30. O'zbekiston Respublikasi uzluksiz majburiy ta'lim tizimining Davlat ta'lim standartlari. Toshkent., 2016-yil.
31. Қурбонова Х. Она тили таълими мазмунини янгилашнинг лингвометодик асослари: Пед. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2005-yil.
32. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. T., 2006-yil.
33. Robins R. H. General Linguistics. An Introductory Survey. -London, 1971. -P. 27; Верещагин Е. М., Костомаров В. Г. Языки и культура. -М., 1990.
34. Рўзимухаммад Б. Буюк шахслар силсиласи // Маърифат, 2002. -№26.
35. Саидов М. Ўзбек мактабларининг 5-синфларида она тили таълими жараёнида тафаккурни ривожлантирувчи ўқув топшириқлари ва улардан фойдаланиш методикаси: Пед. фан. номзоди. ... дисс. –Тошкент, 2000-yil.
36. Современный татарский язык. -С.1974.
37. Содиқова М. Ҳозирги ўзбек тилида сифат. -Т.: Фан. 1975.
38. Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida sifat. Fan, 2001-yil.
39. Tursunov U., Muxtorov J., Rahmatullayeva SH. Hozirgi o'zbek adabiy tili. -T., O'zbekiston, 1992-yil.
40. Твардовский А. О литературе. Москва, 1987.

41. Тил таълими босқичларида узвийликни таъминлашнинг илмий-амалий муаммолари // Ўзбек тили доимий анжумани ўнинчи йиғини материаллари. – Тошкент: РТМ, 2009-йил.
42. Shukurov O, Boymatov B. O‘zbek tilining ma’nodosh so‘zlar lug‘ati. T., 2009.
43. Uluqov N.M., G‘oyibnazarova N.R. Ona lili. 6-sinf: O‘qituvchilar uchun metodik qo‘llanma // N.M.Uluqov, N.R.G‘oyibnazarova, – Toshkent, Tasvir, 2005-yil.
44. Ўзбек мактабларида она тили таълими концепцияси // Тил ва адабиёт таълими. – Тошкент, 1994. – № 1.
45. Юсупова Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили дарсларида уқувчилар тафаккурини ўстиришнинг илмий-методик асослари (академик литсейлар мисолида) Пед. фан. док. дис... - Т., 2005.

Elektron ta’lim resurslari

Elektron saytlar ro‘yxati:

- <http://www.ziyonet.uz>;
- <http://www.ziyouz.uz>;
- <http://www.uzedu.uz>;
- <http://www.kitob.uz>;
- <http://www.fikr.uz>;
- <http://www.utube.uz>;
- <http://www.edunet.uz>;
- <http://www.edu.uz>;
- <http://rtm.uzedu.uz>;